

## PODACHI

O'tgan zamonda bir karvonchi boy bo'lgan ekan. Uning aqlli bir o'g'li va nihoyatda chiroyli bir qizi bor ekan. Kunlarning birida bu karvonchi safarga bormoqchi bo'lib, o'g'lini ham o'ziga hamroh qilib olibdi. Qizini esa unga saboq berayotgan domlasiga omonat qilib topshiribdi. Ular safarga ketgach, ikki oydan so'ng domlaning xotin, bola-chaqalarini podshohning xotini ziyofatga chaqiribdi. Ular bilan birga qiz ham safarga tayyorlana boshlabdi. Buni ko'rgan domla:

— Siz, — deпти qizga, — birovning omonati, men to'yga borishingizni ma'qul ko'rmayman.

Qiz noiloj domlaning uyida qolibdi. Tushga yaqin domla qizni chaqirib:

— Uydagilar qaytmadi. Siz menga tahorat uchun suv hozirlab bersangiz, - debdi. Qiz oftobada suv keltirgan ekan, domla oftobadagi suvni olmay, qizning bilagidan tutib:

— Meni qiynamang... - debdi.

Qiz qo'lidagi oftoba bilan domlaning peshanasiga tushirgan ekan, uning peshanasi yorilib ketibdi. U qon bilan ovora bo'lib qolibdi. Qiz fursatni g'animat bilib, domlaning qo'lidan qochib o'z hujrasiga kirib olibdi. Shu kuniyoq domla qizning otasiga: «Sizning qizingiz buzilib ketdi. Endilikda mening gapimga kirmay qo'ydi. O'zingiz bir chora ko'ring...» — deb xat yozibdi. Xatni olgan karvonchi o'z o'g'liga: «Borib singlingni o'ldirib, bir qoshiq qonini olib kel!..» — deb buyuribdi. Yigit kelib singlisining cho'lga olib chiqibdi, biroq o'ldirishga ko'zi qiymay: Singliga, sen o'z joningning g'amini ye. O'z kuningni o'zing ko'r. Men sening o'rningga birorta kuchuk topib, o'ldirib qonini olib boray, — deya uni qo'yib yuboribdi. Qiz cho'l kezib ketibdi.

Endi so'zni boshqa yerdan eshitaylik. Shu yerga yaqin bir shahar podshosining kelishgan bir o'g'li bor ekan. U vazirning o'g'li bilan ovga chiqib, qush solsa, qush uchib kelib bir buloq boshidagi chinorga qo'nibdi.

Shahzoda buloq boshiga kelib qarasa, bir sohibjamol qiz yashirinib turgan emish. Shahzoda qizning qoshiga kelib:

— Siz odamzotmi yoki parizotmisiz? Bu yerga qanday kelib qoldingiz?  
— deb so'rabdi. Qiz boshidan o'tganlarni aytib beribdi.

— Undoq bo'lsa, — debdi shahzoda, — men sizga qiyomatlik yo'ldosh bo'lay.

Bu gap qizga ma'qul bo'libdi. Shahzoda qizni shahar ga olib borib, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qilib uni o'z nikohiga olibdi. Oradan besh yil o'tibdi. Ular ikki farzand ko'rishibdi. Bir kuni qiz devorga chiqib qarasa, bir to'p karvon o'tib borayotgan ekan. Uni ko'rgan qiz otasini eslab yig'lay boshlabdi. Shu payt hovliga kirib kelgan shahzoda:

— Nega yig'layapsiz? — deb so'rabdi.

— Mening sizga tekkanimga besh yil bo'ldi. Siz bir bora ham mening otamni eslamadingiz. Otamni ko'rgim kelib qoldi, — deb javob beribdi qiz.

— Unda tayyorgarchilik ko'ring. Men vazirning o'g'lini sizga hamroh qilay, — debdi shahzoda. Uch kundan so'ng shahzoda vazirning o'g'li bilan malikani baquvvat navkarlar himoyasida otasining yurtiga kuzatib qo'yibdi. Ular bir hafta yo'l yurishibdi. Bir kuni tahorat olgani chiqqan vazirning o'g'li chodirning ichida o'tirgan malikaga ko'zi tushib, unga oshiq bo'lib qolibdi. Shu zahotiyiq niyati buzilib, kunni ming azobda kech qilibdi. Oqshom chog'i ular qo'nalg'aga qo'nishgach, malikaga odam qo'yibdi.

Malika:

— Ikki bolam bor, ularning yuziga oyoq qo'yib nomusimni bulg'amayman, — debdi. Vazirning o'g'li bu kunni g'am bilan o'tkazib, keyingi qo'nalg'aga borganlarida kechasi malikaning chodiriga kiribdi. Malika ikki o'g'lini ikki yoniga olib yotgan ekan. U vazirning o'g'lining talabiga ko'nmagach, to'ng'ich o'g'lini bo'g'izlab o'ldiribdi. Yana qiyin-qistovga olsa ham malika unamabdi. Vazirning o'g'li uning ikkinchi o'g'lini ham o'ldiribdi, malika hasrat o'tida yonib, oxiri bunday deb so'z beribdi:

— Bugun men tunni ikki o'g'limning motami bilan o'tkazay, ertaga sizning ixtiyoringizga o'tay.

Vazirning o'g'li chorasiz qolib, «ma'qul» deb, qaytib chiqib uyquga ketibdi. Malika ikki o'g'lini chodirning ichiga ko'mib, o'zi erkakcha kiyinib qochibdi. Vazirning o'g'li uyg'onib chodirga odam kiritisa, malika yo'q. Navkarlari bilan uni har qancha izlasa ham topa olmay, oxiri shahzodaning huzuriga qaytib:

— Sizning xotiningiz bir kechasi bizni uxlatib qo'yib, ikki o'g'li bilan yo'qolib qoldi. Har qancha izlasak ham topa olmadik, — debdi.

Shahzoda bu gapga ishonmay, qizni izlash taraddudiga tushibdi. Yana unga vazirning o'g'li hamroh bo'libdi. Shahzoda qizning otasi yashab turgan shaharning nomini eslab, uni so'rab-so'roqlab topib borgunicha oradan ancha vaqtlar o'tibdi. Nihoyat qizning otasi yashab turgan shaharni topib borib, bo'lgan voqealarni gapirib beribdi. Hammalari yig'i-sig'i qilganlaridan keyin, ovqatlangani o'tirishibdi. Qiz ham qochib kelib, otasining podachisiga uchrabdi. Oti bilan erkakcha libosini podachiga yechib berib, o'zi podachining liboslarini kiyib, uni ozod qilib yuboribdi. Otasiga sezdirmay poda boqib yurgan ekan, otasi unga ziyofat uchun bir qo'y keltirishni buyuribdi. Qizning otasi shu kungi ziyofatga podshoni, domlani chaqirgan ekan. Bazm rosa qiziganida o'tirganlar ertak talab qilishibdi. Na boydan, na podshodan bir ertak chiqmabdi. Ziyofatda pishir-tushirga qarashib yurgan podachi suratidagi qiz buni ko'rib:

— Shohimiz ma'qul ko'rsalar, men bir ertak aytib bersam, — debdi.

— Mayli, ayta qol, eshitib ko'raylik, — debdi podsho.

— Eshitganimni aytaymi, ko'rganimnimi? — debdi malika.

— Ko'rganingni ayt.

Malika boshidan o'tgan savdolarni ayta boshlabdi. So'z savdogarga yetganda, savdogar o'z ko'nglida «menga o'xshagan yana boshqa birov shundoq qilgan ekan shekilli», deb o'ylabdi. Domla ham, vazirning o'g'li ham, shahzoda ham shundoq deb o'ylashibdi. Oxirida qiz o'zini oshkor qilgan ekan, podsho vazirning o'g'li bilan domlani dorga osishga hukm qilibdi.

## UCH O'G'IL

Bor ekan, yo'q ekan, qadim zamonda bir dehqon o'tgan ekan. Bu dehqonning turmushi yaxshi ham emas, yomon ham emas ekan. U boshqa yurtlarni sayohat qilib kelish uchun uzoq safarga tayyorgarlik ko'ribdi. Safarga chiqish oldidan o'z bolalariga bir-ikki og'iz vasiyat qilib, o'g'illarining keyingi ahvolini sinab ko'rmoqchi bo'libdi.

— Men uzoq safarga borib kelmoqchiman. Sizlarning har qaysingizga bir juftdan tovuq, o'rdak, g'oz berib ketaman. Men safardan qaytguncha ularning tug'gan tuxumlarini sotib, pulini xaijlamay yig'ib qo'yinglar. Keyinchalik o'zlaringizga asqatib qoladi, — debdi. O'g'illariga bu gap ma'qul kelibdi. To'ng'ich o'g'luga bir juft tovuq, o'rtanchasiga bir juft o'rdak, kenja o'g'luga bir juft g'oz berib, o'zi safarga yo'l olibdi.

Bir necha hafta o'tgach, tovuq, o'rdak, g'ozlar tuxum qo'ya boshlabdi. O'g'illar ularni sotib pul qila boshlashibdi. To'ng'ich o'g'lining boshiga shunday fikr kelibdi: «Tuxumning pulini yig'ib nima ovoragarchilik. Otam kelguncha pulini sarflab xursandchilik qilay. Otam kelib mendan tuxumning pulini so'rasa, tug'mas tovuq ekan deb qo'ya qolaman». Shunday deya u tuxumlaming pulini xaijlay boshlabdi. O'rtancha o'g'il o'rdakning tuxumlarini ham, o'rdakning o'zini ham sotib yuborib, ko'nglini xushlab yuraveribdi. «Otam kelib so'rasa, o'rdakni o'g'ri urib ketdi, deb aytaman», — deb o'ylabdi u. Kenja o'g'il g'ozning tuxumlarini yig'ib, ularni bostiribdi. Shu zaylda avval g'ozlarini ko'paytirib, uning tuxumlarini zoye ketkazmay sotib, ancha-muncha pul yig'ibdi. Otalari safardan qaytibdi. Keliboq to'ng'ich o'g'lidan ishning natijasini so'rabdi. To'ng'ich o'g'il oldindan tayyorlab qo'ygan javobini beribdi. Otasi ko'nglida: «Sen odam bo'lmabsan, bundan so'ng menga asqatmaydiganga o'xshaysan», — deb o'ylabdi. O'rtancha o'g'lidan so'rabdi. U ham: «O'rdak tuxum qilguncha o'g'ri urib ketdi», — deb yolg'on so'zlabdi. Unga ham g'ing demasdan, ko'nglida: «Sen bundan keyin menga asqatishing u yoqda tursin, o'zingni ham o'zing eplolmaydiganga o'xshaysan», - deb o'ylabdi. Kenja o'g'lidan so'rabdi. U otasiga tuxum sotib yig'gan pullarini beribdi. So'ng ko'paygan g'ozlarini ko'rsatibdi. Otasi kenja o'g'lidan xursand bo'lib, o'z ko'nglida: «Mana, sen odam bo'lasan», — debdi.

Oradan ancha vaqt o'tibdi. O'g'illar otasi o'ylagandek bo'lib chiqishibdi. Dehqon avval ikki katta o'g'lini, so'ng kenjatoyini uylantirib

qo'yibdi. Otalari o'ylaganidek, ikki katta o'g'ilning ishi kundan kunga orqa ketibdi. Uydagi buyumlarini sotib xarjlab, yana otalarining qo'lga qaram bo'lib qolishibdi. Kenja o'g'il g'ozlarini boqib, turmushini ancha yaxshilab olibdi. Ota-onasiga ham qarashib turibdi. Otasi kenja o'g'lidan rozi bo'libdi.

## OLTINCHI CHOL

Qadim zamonda bir podsho bo'lgan ekan. U nihoyatda rahmsiz, zolim podsho bo'lib, kecha-yu kunduz aysh-ishratdan bosh ko'tarmas ekan. Davlat xaroblashib, xalqning turmushi kundan kunga og'irlashibdi va bora-bora kishilarning o'n oyda ham qozoni bir bor qaynamay qolibdi. Shundoq bo'lsa ham podsho amaldorlari soliq uchun xalq boshidan arimas ekan.

Bu zulmga chiday olmagan shahar xalqi bir kuni yig'ilib maslahat qilibdi. Ba'zilar:

— Podsho tamoman aysh-ishrat bilan bo'lib, bizning turmushimizdan xabar olmay qo'ydi. Shuning uchun unga ahvolimizni bayon qilib, oliq-soliqni yengillashtirish haqida iltimos qilaylik, — debdi. Bu fikr ko'pchilikka ma'qul tushib, shunday qilmoqchi bo'lishibdi. Shu topda jamoat ichidan bir chol chiqib bunday debdi:

— Sizlar bizning ahvolimizni bilmay turib podsho shunaqa qilmoqda deyapsizlar, bu fikr to'g'ri emas, podsho bilmay turib emas, atayin shunday qilmoqda. Biz arz qilib yurmasdan biror-bir tadbir bilan podshoni tuzoqqa tushiraylik. Men bir chora o'ylab qo'yganman.

— U qanaqangi chora ekan? — debdi ko'pchilik ishonqiramay.

— Bu — mening ishim. Sizlar menga oltin yig'ib bersangiz bo'ldi. Qolganini o'zim bilaman, — debdi chol.

Xalq cholga ishonib, ming mashaqqat bilan uch pud oltin yig'ib beribdi. Chol oltinni olgandan keyin, podsho ovga chiqadigan yo'l ustida bir qumlik bor ekan, shu qumloqqa borib, oltinning bir qismini qumga sochib, ustini ko'mib qo'yibdi. Bir mahal podsho o'z lashkarlari bilan shahardan chiqib kelibdi. Podsho cholning yoniga kelib, uning ishiga hayron bo'lib so'rabdi:

— Bu yerda nima qilib o'tiribsan?

— E podshohi olam, «hunarmand o'lmas, hunarsiz o'ngmas» deganlaridek, hunar qilib o'tiribman, — debdi chol.

Podsho bu javobni eshitgach, yanada hayron bo'lib:

— Bu qumloqda qanaqa ham hunar qilar eding? — debdi.

— Mening hunarim nihoyatda asl hunar, — deya javob qaytaribdi chol, — mana bu qumloqqa har payshanba kuni oltin ekib ketaman va har juma kuni hosilini yig'ib olaman.

Podsho bunga ishonmay:

— Qani, oltinni qanday yig'ishingni menga bir ko'rsat- chi, — debdi.

Chol belgilab qo'ygan qum tepachalarini kovlagan ekan, chindan ham sap-sariq oltinlar g'alvirga chiqib kelibdi. Bundan podshoning ko'zlari alaq-chalaq bo'lib ketibdi. Uning xursand bo'lib ketganligini ko'rgan chol:

— Podshohi olam, mening hunarim shundoq yaxshi hunar bo'lsa-da, hozir qo'limda dastmoya yo'q, - debdi.

Podsho cholning gapini anglab, «tayyor o'ljaga ega boidim-ku», deb o'ylab:

— Undoq bo'lsa senga urug'lik oltinni men berayin. Ikkimiz o'rtoq bo'laylik, — debdi. Chol podshoning taklifini mamnuniyat bilan qabul qilibdi. Podsho chol bilan xayrlashib ketibdi. Ertasi kuni chol podshodan bir pud oltin olib, kelar jumada ikki pud qilib qaytaribdi.

Bundan podsho juda xursand bo'lsa ham, lekin, ko'nglidagi shubha tarqamay, yana bir sinab ko'rish niyatida ikki pud oltin beribdi. Bu ham ko'ngildagidek chiqibdi. Shundan so'ng podsho buning rostligiga ishonib, xazinasidagi oltinning hammasini beribdi. Chol bu oltinlarni olgandan keyin, hammasini xalqqa bo'lib berib, o'zi nihoyatda xafa holda podshoning huzuriga kirib boribdi. Buni ko'rgan podsho choldan nima bo'lganli gini so'rabdi.

Chol yig'lamsirab:

— Podshohi olam, ekan oltinning hammasi qurib ketdi, — debdi.

Podsho darg'azab bo'lib, o'tirgan taxtidan yarim gaz irg'ib tushibdi va:

— Men bundoq gapga ishonmayman, qumda ham oltin qurib ketadimi? - debdi.

Chol podshoning g'azabiga pisand ham qilmasdan:

— Podshohi olam, qumda oltin unganiga ishonasiz, nega qurib qolganiga ishonmaysiz? Bu ham Xudoning amri, ziroat degani hamisha

ham bir xil bo'lavermaydi- ku, axir! Zora bundan keyin hosilimiz mo'l bo'lsa, — debdi.

Shunday qilib, bu chol podshoni nihoyatda ustalik bilan tuzoqqa tushirgan ekan.

### **ZIYRAK BILAN ZERIKKAK**

Qadimning qadimida, ota-bobom zamonida binning yoshi to'lgan, binning boshi to'lgan ikki kishi bo'lgan ekan. Kichigining laqabi Ziyrak, kattasining laqabi Zerikkak ekan.

Kunlarning birida Zerikkak shaharga bozor qilgani tushibdi, yo'lida ketib borayotsa, ortidan bir otlıq yigit shitob bilan yetib kelibdi.

— Assalomu alaykum! — debdi Ziyrak.

Zerikkak lom-mim demabdi. Ular yo'l yurishibdi, yo'l yurganda ham mo'l yurishibdi. Zerikkak zeriksa-da, Ziyrakka qarab ham qo'ymabdi. Yo'l uzaygandan uzayibdi. Oxiri Ziyrak bir bahona bilan so'z boshlab:

— Yo'l rosa uzayib ketdi. Shundoq ketaveramizmi yoki yo'lni qisqa qilamizmi? — debdi.

Zerikkak hayron bo'lib:

— Ajabo, meni masxara qilyapsanmi, ikkimiz ham otda ketayotgan bo'lsak, bu nima deganing? - deya xafalanib so'rabdi.

Ziyrak:

— Men masxaralash uchun bu gapni aytmadim. Xayr, o'zingiz bilasiz, — deb javob beribdi.

Ular yana lom-mim demay o'z yo'llarida davom etishibdi. Safar yana cho'zilibdi. Shundoq ketib borishsa, oldilaridan rosa bo'liq bug'doyzor chiqibdi. Ziyrak bug'doylarga zavqlanib qarab:

— Tog'a, mana shu bug'doylar dehqonning uyiga kirarmikan? — deb so'rabdi. Zerikkak undan xafa bo'lib, jahli chiqib ketibdi.

— Dehqonning uyiga kirmay qayga ketardi? Balli-balli, aqlingga qoyil! Yo'qsa shuncha bug'doyni sichqonlar tashib ketarmidi? — debdi sapchib ketib.

Ziyrak unga sabr tilabdi.

— Gapning tagi sichqonlarda emas, sichqondan ham o'zganlarda, — debdi kulimsirab.

Bunga chiday olmagan Zerikkak:

— Bas endi, o'rtamizda gap-so'z tamom, vassalom, - debdi-da, anchagancha miq etmay ketaveribdi.

Ziyrak yana unga yondoshib:

— Men bir hamrohiningizman, yo'lingizga sherikman, men bilan yurib zerikmang, — deya uni g'azabdan tushiribdi. Shunday qilib, ular yana yo'lda davom etishibdi. Bir necha kun o'tgach, bir shaharga yaqin kelishibdi. Qarashsa, bir to'p xaloyiq, bir tobutni ko'tarib, yuzlari g'am, ko'zlari nam, qabristonga ketib borishayotgan ekan. Buni ko'rgan Ziyrak chuqur bir «oh» tortib:

— Tog'a, mana shu tobutda yotgan o'likmikan yoki tirik? — deb so'rabdi. Bu savol hammasidan oshib tushibdi. Zerikkakning g'azabdan tepa sochlari tikka bo'lib ketibdi.

— Ha, ahmoqning kattasi mana endi chiqdi. Uka, seni bolamikan desam, soqol-mo'yloving chiqib qopti, qarib aljirab qoldimikan desam, yoshgina yigitsan. Lekin yosh bo'lsang-da, dunyodagi barcha ahmoqlardan o'zib ketibsan. Tobutga kirgan odam o'lik bo'lmay tirik bo'larmidi? E Xudoyim, befahm ahmoqlarga yo'liqishdan o'zing asragaysan! — deya otiga «chuh!» deya qamchi bosib qochishga tushibdi. Ziyrak hayron bo'lib:

— To'xtang, tog'a, to'xtang! Qandoq bo'lmasin, bir necha kun hamsafar bo'ldik. Xayrlashmay ayrilish nomardlik bo'ladi, uylarini sog'inib qoldilarmi yo? — debdi. Zerikkak to'xtabdi, «uy» so'zini eshitib o'ylanib qolibdi. «Rost, nima bo'lganda ham bir necha kun hamroh bo'ldik. Endi uyimga yaqin qolganda, tashlab ketsam uyat bo'lar. Bu-ku bir ahmoq. Shundoq bo'lsa ham uni uyga taklif etib, bir piyola choy berib, keyin kuzatib qo'yay», — degan xayolga boribdi.

— Uka, endi ahmoqona so'zlarni qo'y. Manavini shahar deydilar. Bema'ni so'zlaringni xaloyiq eshitib qolsa, uyat bo'ladi. Xayr, o'tgan ishga salavot, safarimiz hurmati, endi, uka, sen bizning uydin bir piyola choy ichib ketgin, qani, yur, - debdi.

Ziyrak:

— Albatta, safarimizning hurmati, bu gapingiz menga ma'qul, aka, — debdi. Zerikkak mehmonni hali mehmon qilmay turib yana zerika boshlabdi. Mehmonni ichkari uyga boshlab, «qizim, mehmonga qara!» —



deb o'zi oshxonaga yo'l olibdi. Ovqat tadorigini ko'rayotgan xotiniga qarab, «uh, astag'furulloh», debdi. Xotini:

— Nega «astag'furulloh» deb qoldingiz, — deya so'rabdi. Zerikkak past ovozda: «Ishingni qilsang-chi, mundoq mehmonga choy ham zoye ketadi», — deb, yo'lda ro'y bergan voqealarni so'zlab beribdi. Zerikkakning bir qizi bo'lib, u nihoyatda kelishgan, aqlli qiz ekan. Bu qiz mehmonga dasturxon solib, choy quyib berar ekan, ota-onasi sezmagan holda balog'atga yetib qolgan qalbiga o't tushibdi. O'zi ham mehmon yigit kabi chechan, dono bo'lganligi sababli oshxonaga kirib-chiqib yurib otasining og'zidan yigitning barcha hikmatomuz so'zlarini eshitib olibdi. Qiz qo'lida patnis, kiyikdek ortiga o'girilib turib shunday debdi:

— Ota, so'zlaringizni eshitib qoldim. Xafa bo'lmang-u, biroq mehmon aytgan so'zlarning hammasi joyida, nihoyatda ma'nili so'zlar.

— Mana, onasi, mehmonga bir piyola choy quyar-quymay qizimga ham uning ahmoqligi yuqibdi. Qani, dono bo'lsang, bu so'zlarning ma'nosini menga bir tushuntirib ber-chi, — debdi.

Otasi bu so'zlarni aytishi bilanoq qizi:

— Yo'lni qisqartiraylikmi degani — «hikoyatlar aytishib, suhbatlashib ketaylik» degani. «Shu bug'doylar dehqonning uyiga kiradimi» degani — «Bug'doy uchun rosa mehnat qilishibdi. Endi uning hosili boy-to'ralarga qarzga ketib, dehqon hech narsa ola bilmay qoladimi» degani. «Tobutdagi o'likmikan, tirikmi» degani — «Uning bolalari bormikan yoki farzandsiz, ya'ni haqiqiy «o'lik»mikan degani, — deb javob beribdi.

Zerikkak bu mazmundor gaplarni zerikmay tinglagani uchun ma'nosiga tushunib yetib, qoyil qolibdi. Onasi ham qizini «o'zimning aqlli qizalog'im» deb bag'riga bosibdi. Zerikkak hammasini anglab yetib:

— Yo'lda Xizr qo'shgan hamroh — ziyrak inim ekansan, endi menga o'g'il o'rniga o'g'il bo'l, — deya uni bag'riga bosibdi.

## PODShONING UCH QIZI

Qadim zamonda Xo'tanning Ilichi degan yerida Rahim ismli bir podsho o'tgan ekan. Uning uch qizi bo'lib, bu qizlariga juda katta mablag' sarflab uch bog' yaratibdi. Uch qizning qirqtadan bir yuz yigirma kanizagi

bor ekan. Ular yoz kunlarini butunlay bog'da o'tkazishar ekan. Bu bog'ga qizlaridan boshqa hech kim kirmas ekan. Bir kuni podsho Yusuf degan vazirini chaqirib, unga:

— Siz qizlarning bog'ini ko'rib keling. O't-beti buzilib ketmaganmi, suvlari to'xtab qolmaganmi, mevalari qurib qolmaganmi, tomlari teshilmaganmi? Hammasini ko'rib kelib bizga ayting, buzilgan joylari bo'lsa, darhol tuzataylik. Qizlar buzilgan joylarni ko'rishsa ham bizga aytishmaydi. Shuning uchun oldindan o'zimiz tekshirib ko'raylik, - debdi.

Vazir «ma'qul» deb, bog'ga borib hamma joylarni tekshirib chiqibdi. Hatto qizlar yotadigan ravoqlarni ham ko'zdan kechiribdi. Qarasa, bog'ning besh-olti tup mevalari qurib bitgan, suvlar to'xtab qolgan, bir tom qulay-qulay deb turibdi. Qizlar yotadigan ravoqning ham g'ishtlari ko'cha boshlagan. Vazir yana bog'ni oralab yurib bir joyga kelsa, qizlar o'zaro suhbatlashib o'tirishgan ekan. Vazir, bular nima haqida gapirishayotgan ekan, deb, pana bir joyga bekinib quloq solsa, qizlar bir-biriga: «Otamiz bizni saqlab nima qilmoqchi ekan? Erga bersa bolmaydimi, biz ham balog'atga yetib qoldik», - deb turishgan ekan. Vazir bu gapni eshitib, bog'dan qaytib kelibdi va podshoga bog'ning buzilgan joylarini aytibdi. Har bir buzilgan joyni tuzatishga alohida-alohida odam qo'yishibdi.

Kunlardan bir kun vazir xizmatkorlar qanday ishlayaptiylan, bir ko'rib kelay deb bog'ga kelsa, ular ish bilan mashg'ul ekan. Vazir bog'ni aylanib yursa, qizlar bugun boshqa bir chamanda o'tirib olib turmush hasratini qilishayotgan ekan.

Podshoning qizlari bo'y yetib qolganini ko'rib, so'zlarini eshitgan vazir podshoning yoniga qaytib kelib, podsho bilan birga orom olib o'tirib, unga qizlaridan gap ochib:

— Podshohim, biz qizlardan taom tayyorlashni talab qilsak, turmushga chiqqanlarida taom qila olishmasa uyat bo'ladi, — deb maslahat beribdi. Podsho bu maslahatni ma'qul topib, qizlarini taom pishirtirib sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Vazir qizlarning yoniga borib:

— Otalaringiz sizga taom tayyorlashni buyurdi, — debdi.

Qizlar:

— Voy, juda yaxshi! — deya taom pishira boshlashibdi.

Katta qizi kabob pishiribdi, kabobning yarmi kuyib ketgan, yarmi xom qolgan emish. O'rtancha qizi chuchvara pishiribdi, chuchvara rosa yaxshi

pishgan emish. Kichik qizi chilgi pishiribdi, chilgining usti xomdek ko'rinsa-da, ichi nihoyatda totli ekan.

Podsho katta qizining taomini yeb ko'rsa, uning yarmi kuyib ketgan, yarmi xom emish. O'rtancha qizining taomini yeb ko'rsa, judayam yaxshi pishgan emish. Keyin chilgini tilsa, usti xom ko'ringani bilan, ichi rosa totli ekan. Podsho bundan hayron bo'lib xayolga tolibdi. So'ng: Buning sababi nima? - deb vaziridan so'rabdi. Vazir: Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, men bu sirning ma'nosini aytib beraman, — debdi. Podsho: O'tdim, ayt, — debdi. Vazir bunday deb so'z boshlabdi:

— Bu ikki katta qizingizning taomlarni xom, pishiq qilib pishirishiga sabab, bizning bo'yimiz yetib qoldi, turmushga chiqadigan vaqtimiz bo'ldi, degani. Kichik qizingizning usti xom ko'rinsa-da, ichi nihoyatda totli taom pishirgani — men kichik ko'rinsam-da, mening ham vaqti-soatim yetdi, degani, — debdi.

Podsho vazirdan:

— Endi nima qilamiz? — deb so'rabdi.

Vazir:

— Biz ularning o'zlari bilan kengashib, keyin erga beraylik, — debdi.

Podsho bu maslahatni ma'qul ko'rib, saroy xizmatchilari orqali maslahat so'raganda, qizlar, uch kundan keyin javobini aytamiz, deyishibdi. Uch kundan so'ng ular saroy xizmatchilari orqali vazirga:

—Otam bizga egiz ravoq soldirsin. O'n to'rt kungacha butun xalq shu ravoq oldidan o'tsin, biz shu ravoq ustida turib o'zimizga yoqqan yigitga gul, olma otamiz, shu yigitga bizni bersa bo'ladi, - deyishibdi. Vazir bu so'zni podshoga yetkazibdi. Podsho darhol ravoq yasatib, butun xalq shu ravoq oldidan o'tsin, deb amr qilibdi. Bu xabar butun mamlakatga yoyilib ketibdi. Har shahardan bu podshoning qizlarini ixtiyor etgan boshqa podsholarning o'g'illari, vazirlarning o'g'illari va boshqa yigitlar yopirilib kelishibdi. Ular ushbu ravoq oldidan o'ta boshlashibdi. O'n kun bo'lganda bir podshoning o'g'li ravoq oldidan o'tib qolibdi. Podshoning katta qizi ana shu shahzodaga gul va olma otibdi. Podshoning mulozimlari bu yigitni o'rdaga olib kirib ketishibdi. Ertasi kuni o'rtancha qizi bir vazirning o'g'liga gul va olma tashlabdi. Uni ham o'rdaga olib kirib ketishibdi.

Uchinchi qizi bir podachi yigitga gul va olma tashlabdi. Bu yigitning sarguzashti bundoq bo'lgan ekan.

Bu podachi yigit ilgari boshqa bir shaharda bir boyning mollarini boqib yurar ekan. Bir kuni u mollarni tog'ga haydab borganida qattiq bo'ron turib, u hamma mollaridan ayrilib qolibdi. Bu ahvolda yigit molsiz boyning oldiga borishdan qo'rqib, boshqa tomonga yo'l solib ketibdi; boshqa bir tog'ga yetib kelganida bir cholga yo'liqibdi; chol mana shu tog'da hayot kechirar ekan. U yigitdan qanday qilib bu yerlarga kelib qolganini so'rabdi. Yigit o'z boshidan kechirganlarini aytib beribdi. Chol yigitga:

— Sen bir yetim ekansan. Endi men seni o'qitaman. Ushbu tog'da bir buloq bor, shu buloqning suvidan ichsang pahlavon yigit bo'lasan, — debdi. Bu yigitga ma'qul tushibdi. Chol yigitni o'qitibdi, tog'dagi bir buloqning suviga cho'miltiribdi, yana boshqa bir buloqning suvidan ichkizibdi. Shundan so'ng chol va yigit yetti kunlik safarga chiqishibdi, bir joyga kelganlarida qaroqchilarga yo'liqishibdi. Qaroqchilar ularni o'z xizmatiga olishibdi. Bir kuni qaroqchilar qimor o'ynab, rosa qizishib turganlarida chol bilan yigit ularning huzuriga kirib kelishibdi. Qaroqchilar:

— Nega keldilaring, o'z ishlaringni qilsanglar bo'lmaydimi? — deyishibdi. Chol:

— Sizlardan mana shu hunarni o'rganib olaylik deb kirdik, hamma ishimizni bitkazib qo'yganmiz, — debdi.

Qaroqchilarning boshlig'i:

— Bo'pti, o'tirib o'rganib olishsin, — debdi. Qaroqchilar yana qimorni davom ettirishibdi. Birozdan so'ng chol:

— Men ham o'ynayman, — debdi. Qaroqchilar:

— Sen nimangga o'ynaysan, quruq joningni tikasanmi, — deyishibdi. Chol yiroq bir tog'ni ko'rsatib:

— Ana o'sha tog'dagi mollar meniki, men yuttirib qo'ysam, sizlarga o'sha tog'dagi hamma mollarni beraman. Agar sizlar yuttirib qo'ysanglar-chi? — deb so'rabdi.

Qaroqchilar:

— Biz yuttirib qo'ysak, senga mana shu mol-dunyomizning hammasini, yana ikki uyda podsho va boshqalarning chiroyli qizlaridan

yigirma nafari bor, shularning barchasini beramiz, — deyishibdi. Qirq qaroqchi tonggacha hamma narsalarini yuttirib qo'yishibdi. Chol ularni yutib olibdi. Qaroqchilar bunga chiday olmasdan yana o'ynashibdi. Chol ularni yetti bora yutib olibdi. Oxiri qaroqchilar chiday olmasdan chol bilan jangga kirishibdi. Chol qizg'in janglardan so'ng qirq qaroqchini o'ldirib, uydagi qiz va boshqa jonivorlarni ozod qilibdi. Uylari yaqin qizlarni erkakcha kiydirib, uylariga yetkazib qo'yibdi. Qolgan to'rt qizning uyi yiroq bo'lganligidan, uch qizni chol yetkazib qo'ymoqchi bo'libdi. Bir qizni esa yigitga topshiribdi. Yigit bu qizning hurmatini joyiga qo'yib, ota-onasining shahriga yetkazib, uni ota-onasiga topshiribdi. Qizning ota-onasi yigitni rosa izzat-hurmat qilishibdi. Hatto qizlarini unga bermoqchi ham bo'lishibdi. Biroq yigit unamabdi. Podsho yigitga yetti qur boshdan oyoq sarpo beribdi. Qaytar chog'ida qiz uni ziyofat qilib, ilgari bobosidan qolgan bir qilich, nihoyatda asl shahzoda liboslarini beribdi. Qizning bir «vafodor ot» degan juda yaxshi oti bor ekan. Uni ham yigitga in'om etishibdi, podsho cholga salomlar yo'llab qolibdi. Yigit in'omlarni olib yo'lga ravona bo'libdi. O'n kun deganda cholning oldiga kelib, unga atalgan sovg'a-salomlarni topshiribdi. Chol juda xursand bo'libdi. U yigitga qarab debdi:

— O'g'lim, sizning uylanadigan vaqtingiz bo'ldi. Siz endi bu asl kiyimlarni, ot, qilichlarni bir joyga qo'yib, o'zingiz hozir shaharga boring. Bu ot, kiyim-kechaklar qachon lozim bo'lsa, o'shanda ishlatasiz, — debdi.

Yigit cholga:

— Bobo, siz mana shu otlarimni qo'ygan joyda turib tursangiz, u yer shaharga yaqin ekan. Men bot-bot sizning yoningizga kelib tursam, - debdi. Cholga bu ma'qul tushib, yigit aytgan joyga ko'chib o'tibdi.

Yigit esa shaharga qarab ravona bo'libdi, yo'lda bir qo'tosni tutib olib, shu qo'tosga minib shaharga kirib boribdi. Naq shu kuni podshoning kichik qizi ravoqqa chiqib o'ltirgan payt ekan. Odamlar qo'tosni ko'rib tum- taraqay qochib qolishibdi. Qo'tos esa odamlardan hurkibdi, shundoq qilib, bu yigit bir podshoning o'g'lidan keyin ravoq oldidan o'ta boshlabdi. Podshoning kichik qizi shu podachi yigitga olma va gul tashlabdi. Shunday qilib, uni ham o'rdaga olib kirishibdi. Endi bu yigitlarni qizlarning huzuriga olib chiqmoqchi bo'lishibdi. Podsho ikki katta kuyovini yaxshilab kiyintiribdi. Bu yigitni esa shu podachi kiyimi bilan

olib chiqishibdi. Podshoning kichik qizi juda dono ekan, u podachi yigitga mehr bilan tikilibdi. Har uchala qiz yigitlardan savol so'ramoqchi bo'lishibdi, katta qizi o'zi tegadigan yigitdan:

—Dunyoda odamzotga eng zarur narsa nima? — deb so'rabdi. Yigit:

—Odamzotga eng zarur narsa — xotin, — debdi. Buni eshitgan haligi podachi yigit unga tuzatish berib bunday debdi:

—Dunyoda odamzotga havo, shu bilan birga suv zarur, xotin degani esa shunchaki bir odam, — debdi. Katta qiz o'zi tanlagan yigitga qarab, bu savolga javob berolmagani bilan, o'zi chiroyli shahzoda ekan, men roziman, debdi. O'rtancha qiz o'z yigitidan:

— O'zi ovlab otgan kiyikning go'shti totlimi yoki bozordagi tayyor go'sht totli? — deb so'rabdi. Yigit:

— Bozordan pulga sotib olingan go'sht totli, o'zi charchab ov qilganidan keyin odam rosa mashaqqat chekadi. Undan ko'ra, pul bo'lsa, bozordan sotib olingan go'sht totli bo'ladi, — debdi. Uning so'ziga ham podachi yigit tuzatish qilib:

— O'zi ovlab otgan kiyikning go'shti totli bo'ladi, chunki kishi qanchalik jafo cheksa, shuncha rohat ko'radi, — debdi. Endi kichik qiz podachi yigitdan:

— Odamlarda necha xil mijoz bor, — deb so'rabdi. Yigit:

— Odamlarda yetmish xil mijoz bor, ba'zi odamlar janjalkash, ba'zilari vazmin keladi, mijozlar bir-biriga o'xshamaydi, — debdi. Bu savolga podachi yigit to'g'ri javob berganligi uchun qiz juda xursand bo'libdi.

Podsho qizlariga to'y qilib beribdi, ikki qiziga ikki bog'dan kattakon uylarni in'om etibdi, kichik qizidan achchig'i chiqib, bu bir podachiga tegib meni nomusdan o'ldirdi, deb, bir og'ilxonani ajratib beribdi. Bu qiziga qaramay, uni xizmatkorlar uchun ovqat tashishga, podachi yigitni esa qo'y boqishga qo'yibdi.

Bir kuni kichik qizi onasining huzuriga yig'lab kirib:

—Sizlarning bizning uyga oyda bo'lsa ham bir marta kirgingiz kelmaydi, opalarimning uyiga har kuni borasizlar, men sizlarni uyimga taklif qilib keldim, — debdi.

Onasi qiziga achinib:

— Hammasiga o'zing sabab, odam topilmagandek bir podachiga tegding, mayli, biz bir haftadan so'ng otang, opalaring, kuyovlarimiz bilan

siznikiga mehmon bo'lib boramiz, — debdi. Qiz qaytib kelib bu gapni yigitga aytibdi. Bu ikkisining turmushi nihoyatda ko'ngilli ekan. Yigit bu gapni eshitib, kelishsa bo'пти, deb, haligi cholning oldiga borib, unga qaynota-qaynonasi, qaynopa va bojalari mehmon bo'lib kelishini aytibdi. Chol yigitga bir tog'ni ko'rsatib: «Sen shu tog'ga borsang, turli yovvoyi mevalar bor. Ular nihoyatda totli. Shundan olib borib mehmon qil», - debdi. Yigit chol ko'rsatgan haligi tog'ga borib, mevalaridan terib, kiyiklaridan, bug'ularidan tutib, choldan turli-tuman noz-ne'matlar olib kelib xotiniga beribdi. Qiz ularni saralab terib, kiyiklarning go'shtlarini turli taomlar uchun hozirlab qo'yibdi. Ertasi tush paytida ota-onalari va boshqa mehmonlar kelishibdi. Qiz tayyorlagan mevalarini ota-onasi, opalarining oldiga qo'yibdi. Podsho mevalardan yeb, «judayam mazali ekan», deb, kuyoviga: Bolam, mevalardan bo'lsa, yana yesak, qayerdan olib keldingiz? — debdi.

Yigit:

— Tog'dan olib keldim, ota, — deb javob beribdi.

Podsho:

— Tag'in bormi? — deb so'rabdi.

Yigit:

— Bor, men hozir olib kelaman, - deb, tashqari chiqib, qo'tosini minib borib yana haligi mevalardan terib kelibdi. Podsho yana yebdi, unga qadar taomlar ham tayyor bo'libdi. Taomni yeb ko'rishsa, u rosa mazali ekan. Podsho bilan opalari bu qizni maqtab ketishibdi; podsho katta qizlarining uyida bundoq totli taom yemagan ekan. Kichik qizi atigan choy'ga otasini, opalarini yana taklif etibdi. Ular yana kelib taomlardan yeb ketishibdi. Oradan bir necha kun o'tgach podsho va boshqa mehmonlar yana kelishibdi, qiz bu kuni ham mazali taomlar tayyorlabdi-da, sho'rvaning ichiga qo'yning qumalog'ini solib qo'yibdi. Podsho va mehmonlar sho'rvani icha boshlashibdi. Oxirida qarasa, podsho sho'rva ichgan kosaning tagidan qumaloq chiqibdi. Podsho qiziga: Qizim, ovqating juda mazali, totli bo'libdi, biroq sho'rvaning ichiga qumaloq tushib qolibdi, — debdi. Qizi: Turgan joyimiz og'ilxona bo'lganidan keyin, qumaloq tushgan bo'lsa tushgandir-da, — debdi. Bundan podsho rosa izza tortibdi. U qiznikidan qaytganidan keyin, og'ilning boshqa tomonidan uy-joy qilib beribdi, ular shu joyga ko'chib o'tib ko'ngilli turmushlarini davom

ettirishibdi. Podshoning bu qizi qo'li bo'sh kunlari palak tikib sotib, ro'zg'orga kerakli narsalar olar ekan. Oradan bir necha kun o'tibdi. Bir kuni podsho uchala kuyovini chaqirib, kattasiga: Siz to'rt yo'lbarsning boshini kesib kelasiz, — deb buyuribdi. O'rtanchasiga: Siz to'rt bo'rining boshini olib kelasiz, — debdi. Podachi yigitga Siz tog'dagi mevalardan terib kelasiz, — deb buyuribdi. Yigitlar ma'qul deb uchalasi birga podsho huzuridan chiqishibdi, oradan ko'p o'tmay podachi yigit g'oyib bo'lib qolibdi. Bojalari uni izlab har yoqqa yo'l olishibdi. Podachi yigit esa bu yerdan chiqib to'g'ri cholning huzuriga boradi va unga podshoning buyrug'ini aytadi. Chol: Men senga manavi yaqin tog'ning narisidagi tog'da yurgan yovvoyi yo'lbars, bo'rilar ni ko'rsatib qo'yay, shulardan o'ldirib olib kelgin, — debdi. Yigit rozi bo'lib, haligi vafodor arg'umoqni minib, qilichini osib, shahzoda kiyimlarini kiyib vahshiy yo'lbarslar yashaydigan tog'ga boribdi. Yo'lbars va bo'rilar bilan jang qilib, to'rt yo'lbars bilan to'rt bo'rining boshini kesib olib, xurjunining ikki ko'ziga solib, chol parvarish qilgan yo'lbars va bo'rilar ni ortidan ergashtirib ikki begzoda ketgan tomonga yo'l olibdi. Yiroqdan ularni kuzatsa, ular hech narsa tuta olmay, yo'lbars, bo'rilar ni ko'rsalar ham jang qila olmay, uzoqdan o'q-yoy otib tegizolmay yurgan, quruq qaytmoqchi bo'lib turgan ekanlar. Podachi ortidan ergashtirgan yo'lbars, bo'rilar i bilan ularning yoniga boribdi. Podachi ulardan: Kim bo'lasizlar, nima uchun bu yerlarga kelib qoldingizlar? - deb so'rabdi. Ular podshoning o'zlariga topshirgan yumushlarini aytib berishibdi. Podachi: Undoq bo'lsa, men sizlar izlab yurgan narsalarni beraman. Lekin sizlardan so'raydigan narsam bor, — degan ekan, ular darhol rozi bo'lishibdi. Yigit ularga yo'lbars va bo'rilar ning boshini sanab berib, evaziga ularni yechintirib, ortiga podachi degan tamg'asini bosibdi. Ular xursand bo'lganlaricha ortga qaytishibdi. Podachi yigit ularni kuzatib qo'ygach, cholning yoniga kelib ot, qilich, liboslarini yechib qo'yib, mevalarni terib olib, qo'tosiga minganicha o'rdaga kirib boribdi. Podsho kuyovlarining olib kelgan narsalaridan juda xursand bo'libdi. U kunlarning birida ikki katta kuyoviga podachi terib kelgan mevalardan topib kelishni buyuribdi. Lekin ular buni topisholmabdi. Shundan so'ng ular podachini yo'q qilish payiga tushishibdi.



Kunlarning birida podsho podachini chaqirib:

— Sen ham bojalaring boshini keltirgan yo'lbars, bo'rilarni tirik tutib kel, tirigini keltira olmasang, o'ligini keltirsang ham bo'ladi, — debdi. Podachi ma'qul deb, uyiga kelib, bu gapni xotiniga aytibdi. Xotini:

— Sen bemalol chiqib ketavergin, men sening kuchingni tomosha qilish uchun ortingdan erkakcha kiyinib chiqaman. Sen meni tanimaslikka ol, — debdi.

Podachi ma'qul deb, qo'tosini minib cholning yoniga boribdi, shahzoda kiyimlarini kiyib olsam, xotanim ko'rib qolmasin deya oti bilan qilichini olib tog'ga jo'nabdi. Xotini uning ortidan kelib panada pisib turibdi. Bojalari podshodan: «Biz unga yordam qilsak»,— deya so'rab chiqib, podachining ortidan jo'nashgan ekan. Podachiga yetib olib, payt poylab turib, uni o'ldirish uchun qilichlarini shaylashganda podachining xotini yiroqdan ikki o'q-yoy bilan har ikkalasining so'l qo'lini qattiq yaralabdi, ular qulab tushibdi. Podachi ularning dodvoylarini eshitib ularning yoniga boribdi. Shu payt podachining xotini ham yetib kelib ulardan:

—Sizlarga nima bo'ldi? - deb so'rabdi.

Biz podachini qo'rib ketayotgan edik, g'oyibdan bir o'q kelib tegdi, yaralandik, - debdi ular. Qiz hech narsa demabdi. Ular podachini qaytarib olib kelib, podshoga: «Biz podachini qo'riqlab qilich o'ynatib borayotgan edik, g'oyibdan o'q kelib tegib yarador bo'ldik, shuning uchun podachini ham qaytarib olib keldik, tag'in yolg'iz qolib, bunga ham bir kor-hol bo'lmasin dedik», - deyishibdi. Podsho buni ma'qul ko'ribdi, ikki kuyov davolana boshlashibdi.

Bir kuni podachi podshoning buyrug'ini o'rinlatgani xotini bilan chiqibdi. Haligi bojalari yetib kelib uni ot- dan tushirishibdi. Bojalari:

— Sen namuncha gerdayib ketting, o'zingcha bizni nazar-pisand qilmay qo'yding, xo'sh, bu qilich bilan otni qayerdan olding?! — deb po'pisa qilishibdi. Podachi:

— Sizlar nega meni mensimaysizlar, sizlar podshoning kuyovi bo'lsangizlar, men ham uning kuyovi bo'laman, — debdi. Shunday qilib ular shu yerda qilichlashib ketishibdi.

Podachi bu ikkalasini bog'lab rosa adabini beribdi. «Meni tanidinglarmi? Yana menga qasd qila ko'rasanlarmi?» — deb tag'in rosa uribdi. Ikkala boja, boshqa zinhor bunday qilmaymiz, deb qasam

ichishibdi. Shundan so'ng podachi ularni qo'yib yuboribdi. O'zi otga minib, yo'lbars, bo'rilar yashaydigan joyga borib, yo'lbars, bo'ri, ayiqlarni tiriklay bandi qilibdi. Shu orada haligi ikki bojasi panadan turib uni otib o'ldirmoqchi bo'lishganida, uning xotini bularning o'ng qo'llarini yaralabdi. Podachi hayvonlarni oldiga solib, ikkala bojasini otga o'ngarib, o'zi qo'tosni minib o'rdaga kirib kelibdi.

Podsho:

— Hoy podachi, bularni bir o'zing tutdingmi? — deb so'rabdi. Haligi yarador kuyovlar:

— Bir o'zi qandoq qilib ham tuta olardi, biz yordamlashib tutib berdik, — deyishibdi. Podachi lom- mim demabdi.

Podsho:

— Nima bo'lsa ham manavi qo'tosni tutib kelibdi-ku, bunga tuzukroq kiyim-kechak beringlar, - debdi, podachiga jangchilar kiyadigan kiyim-bosh berishibdi.

Kunlarning birida podshoning shahriga dushman hujum qilib kelibdi. Podsho vazirlarini, kuyovlarini chaqirib, bu dushmanni qandoq yengsak ekan, deb maslahat solganida, katta kuyovi bilan o'rtanchasi:

— Bizga besh yuztadan jami mingta askar bering, biz jang qilamiz, — deyishibdi. Podachi:

— Menga hech qanday askar lozim emas, bir o'zim jang qilaman, faqat men askarlarimiz yengilib, ortiga chekinganida jangga chiqaman, — debdi. Podsho ma'qul debdi. Podshoning ikki katta kuyovi urushga chiqibdi, bir necha kundan so'ng dushman tomonning qo'li baland kelib, podshoning askarlari ortga qocha boshlabdi. Podachi bu ahvolni ko'rib, o'zining shahzoda liboslarini kiyibdi, yuziga niqob taqib, vafodor otini minib, qi- lichini qo'lga olib, maydonga tushib dushman bilan jangga kirishib ketibdi. Oxiri dushman askarlari yengilib, ortga qocha boshlashibdi, bu esa ularni quvib ketibdi. Buni ko'rgan katta kuyovlar qochgan joylaridan ortga qaytib, unga yordamga yetib kelishibdi. Urush tamom bo'lgach, podsho podachini tanimay, uning sharafiga ziyofat beribdi. Bu ziyofatga vazirlar, saroy a'yonlari va ko'p xaloyiq yig'ilgan ekan. Podachi yuzidagi niqobni olib tashlab:

— Meni tanidingizmi? Men podachi bo'laman, bular bo'lsa yaxshilikka yomonlik qiluvchilar, o'zlarining qo'lidan ish kelmaydigan, o'zgalarning

ishini ko'rol- maydiganlardir, — debdi. Podachi ularga bo'ri, yo'l-barslarning boshini berganligini, ular esa podachiga qasd qilganlarini, podachi ularga bo'ri bilan yo'lbarslarning boshini berayotganida ulaming ortiga o'z tamg'asini bosganligini aytib beribdi. Podsho podachidan uyalga- nidan boshqatdan qirq bir kun to'y-tomosha qilib beribdi. Undan uzr so'rab:

— O'g'lim, men sizning bu qadar asl odam ekan- ligingizni bilmagan ekanman, endi podsholikni sizga topshirsam, — debdi. Podachi:

— Men bir o'ylab ko'ray, — deb, saroydan chiqib cholning oldiga boribdi. Unga: «Podsho menga o'z podsholigini bermoqchi, nima qilay?» — deb maslahat solibdi. Chol:

— Sen awal xotiningning maslahatini ol! Undan keyin men yo'l-yo'riq ko'rsatay, — debdi. Podachi ma'qul deb, xotining yoniga kelib maslahat so'rabdi. Xotini:

— Hargiz podsho bo'laman demang. O'zimiz ishlab topib umr kechiramiz, — deb maslahat beribdi. Podachi cholning yoniga qaytib, xotini bergan maslahatni aytibdi. Chol:

— Xotining shundoq degan bo'lsa, men senga hunar o'rgataman, sizlar shuning ketidan turmush kechiringlar, — debdi. Podachi ana shu maslahat bilan podsholikka rozi bo'lmabdi. Xotini bilan cholning yoniga ko'chib kelib, duradgorlik hunarini o'rganibdi. Shu hunari bilan qolgan umrini shod-xurramlikda o'tkazibdi.

### **GAVHAR TUG'ADIGAN TOVUQ**

Bor ekan, yo'q ekan, qadim zamonda bir o'tinchi o'tgan ekan. Uning xotini va ikki o'g'li bor ekan.

Bir kuni o'tinchi to'qaydan o'tin kesayotganda oldidan bir tovuq hurkib chiqib, qaqaqlaganicha qochib qolibdi. O'tinchi oldiga qarasa, bir tovuqning ini turibdi, inda bir tuxum yaltirab turgan emish. O'tinchi bu tuxumni olib qo'yniga solibdi-da, o'tinlarini eshagiga ortib shaharga kirib kelibdi. O'tinni sotib, puliga to'rtta non olib uyiga qaytib ketayotganda ko'zi bir do'konning oldida osig'liq turgan oltin qafasga tushibdi. O'tinchi bu qafasga sinchiklab qarasa, uning ichida xuddi o'zinikiga o'xshash bir tuxum yaltirab turgan emish. U ichida: «Ajabo, mening tuxumimga

o'xshar ekan-a», — deb, bir qo'ynidagi tuxumga, bir qafasdagi tuxumga qarayveribdi. Buni ko'rgan qafas egasi o'tinchiga:

— Ha, namuncha qafasni poylab qolding? Yoki o'g'rimisan? Qani, jo'na! — deb baqiribdi.

— Yo'g'-e, boyvachcha, — debdi o'tinchi. — Qafasning ichidagi tuxum mening tuxumimga juda o'xshab ketar ekan, shuni solishtirib ko'ryapman.

Buni eshitgan boyvachcha hayron bo'lib:

—Qani, ol-chi, men ham bir ko'rib boqay, — debdi. O'tinchi ko'rsatibdi. Boyvachcha shu ondayoq o'tinchiga xushomadlar qilib, uyiga boshlab kirib:

— Buni menga sotaqol! — deb yopishib olibdi.

— Bo'pti, sotsam sotay, — debdi o'tinchi.

—Qancha beray? Ming tanga bersam bo'ladimi?

O'tinchi hayron bo'lib:

— Odamni masxara qilmang, — debdi unga.

Boyvachcha o'z ko'nglida: «Balki buni oz ko'rayotgan bo'lsa kerak», deb o'ylab:

— Bo'pti, bir yarim ming tanga beray, — debdi.

— Masxara qilmang, — debdi o'z tuxumining sirini bilmagan o'tinchi, - rostdan ham oladigan bo'lsangiz, haqiqiy bahosini ayting.

Boyvachcha undoq deb, bundoq deb ikki ming tangaga chiqibdi.

Hayron bo'lgan o'tinchi:

— Qani opkeling pulingizni! — debdi. Boyvachcha darhol ikki ming tangani sanab berib, o'tinchini kuzatib qo'yibdi. Boyvachcha juda xursand emish. Chunki bu oddiy tuxum emas, balki gavhar tuxum ekan.

O'tinchi uyiga borib, bo'lgan voqeani xotiniga aytib, hamyonidan ikki ming tangani chiqarib qo'ygan ekan, xotini hayron bo'lib:

— Shundoq bo'ladigan bo'lsa, o'tinchilikni tashlab, har kuni shu tuxumdan olib kelib sotsangiz, hademay boy bo'lib ketamiz, — deb maslahat beribdi.

Xotining bu maslahati bilan o'tinchi har kuni to'qayga borib, haligi gavhar tuxumdan bir dona topib olib kelib sotib, ko'p o'tmay juda boyib ketibdi.

Bir kuni xotini yana bir maslahat beribdi:

— Endi har kuni gavhar tuxum olib kelaman deb ovora bo'lguncha, shu tovuqning o'zini tutib keltira qoling, uyda tug'diraylik!

O'tinchiga xotini bu maslahati ma'qul tushib, to'qaydan haligi tovuqni tutib uyiga olib kelibdi. Tovuuq uyda har kuni bittadan gavhar tug'averibdi.

Har kuni gavharni sotib oladigan boyvachcha o'tin- chining bu sirini bilib olish payiga tushibdi. Oxiri u o'tinchining gavhar tug'adigan tovuq'i borligini bilib, uni qo'lga kiritishga qasd qilibdi. Boyvachcha bir kitobda o'qigan ekan. Bu kitobda: «Kimki gavhar tug'adigan tovuqning boshini yesa podsho, qanotini yesa vazir bo'- ladi» deyilgan ekan. Boyvachcha shu tovuqni yeyish uchun o'tinchining xotinini yo'ldan ura boshlabdi. O'tinchining xotini yosh ekan. Buning ustiga puli ko'payib, keksa eridan ko'ra yosh-yosh yigitlar bilan kayf-u safo qilish niyatida ekan. Xotinning bu niyati boyvachcha uchun juda qo'l kelibdi. Oxiri boyvachcha bu xotin bilan oshno bo'ibdi. Lekin o'tinchining uyda bo'lishi boyvachchanning haligi tovuqni yeyish qasdigga imkon bermas ekan.

Bir kuni xotin boyvachchanning bergan maslahati bo'yicha eriga:

— Endi xudoyim shuncha ko'p mol-dunyo berganidan keyin, shuning shukronasiga bir haj qilib kelsangiz, — debdi.

O'tinchi o'ylab qaragudek bo'lsa, xotini bu maslahati durust. Ortiq ikkilanib o'tirmay, taraddud ko'rib, hajga ketibdi.

Hiylagar boyvachcha oxiri bu xotinni o'ziga rom qilib olibdi, endi u nima qil desa, xotin shuni qilar ekan.

Boyvachcha bir kun xotinga:

—Agar meni rozi qilaman, bir umrlik oshno bo'lib qolaman desang, mana shu tovuqni so'yib, boshi bilan qanotini menga pishirib berasan.

— Agar unamasang, menga qilmaysan — o'zingga qilasan, — deb qo'rqqitibdi.

Buni eshitib xotin awal g'amga botibdi. Bu shartni o'rinlash bir balo, o'rinlamaslik ikki balo. Oxiri, boyvachcha bilan oshnochiligidan ayrilib qolishidan andisha qilib: «Mayli, so'ysam so'ya qolay, mol-dunyom ham ko'payib qoldi-ku» degan xulosaga kelibdi-da, tovuqni so'yib, boyvachchani uyiga boshlab kelibdi.

Eri hajga ketgandan so'ng xotin bir qui sotib olgan ekan, tovuqni qozonga solib, qulga o't qalab turishni buyurib, o'zi saroyda boyvachcha bilan aysh-ishratga tushib ketibdi.

Birozdan so'ng xotinning ikki bolasi maktabdan qaytib kelishsa, qozonda nimadir qaynayotgan ekan. Qorni ochib kelgan bolalar qopqoqni ko'tarib qarashsa, qozonda tovuq go'shti turgan emish. Darrov tovuqning boshi bilan ikki qanotini olishibdi-da, katta o'g'il boshini, kichigi o'ng qanotini yeb, so'l qanotini qulga berishibdi.

Birozdan so'ng xotin chiqib qozondagi qolgan go'shtlarni tovoqqa bosib, boyvachchaning oldiga olib kiribdi. Boyvachcha qarasa, tovuqning boshi bilan qanoti yo'q. O'rnidan sapchib turib:

— Qani buning boshi bilan qanoti?! Boshi bilan qanoti bo'lmasa, nima qilaman buni, olib chiqib itga bergin! — debdi.

Hayron bo'lgan xotin darhol chiqib quldan so'rasa, u:

— Haligina o'g'illaringiz kelib boshi bilan qanotini yeb ketishdi, — deb javob beribdi.

Buni eshitgan boyvachcha qattiq g'azablanibdi. Keyin o'z-o'ziga: «Shoshma-chi, kitobda, agar shundoq qilish imkoni bo'lmasa, o'sha tovuqning boshi bilan qanotini yegan odamning yuragini yesa ham bo'ladi, deyilgan edi, hali ham bo'lsa men shundoq qilay», deb o'ylabdi-da, xotinga:

— Undoq bo'lsa, shu ikki bolangni o'ldirib, yuragini menga yegiz. Agar shundoq qilmasang holingga voy bo'ladi, — degan shartni qo'yibdi.

Ilojsiz qolgan xotin bunga ham ko'nibdi. Darhol quliga:

— Sen borib, ikki bolamni shaharning chetidagi cho'lga olib chiqib o'ldirib, yuragini olib kel! Agar shu ishni o'rinlatsang, qullikdan ozod qilaman. Bo'lmasa o'zingni o'ldiraman! — debdi.

Qul ma'qul deb, ikki bolani shahar chetidagi cho'lga boshlab boribdi. Bolalar hayron bo'lib so'rashibdi:

— Bizni nega bu yerga olib kelding? Nima qilmoqchisan?

Qul bolalarga onalarining topshirig'ini aytib beribdi- yu, o'zining ham ko'ngli buzilib ketibdi. Ko'nglida: «Bu bolalarning nima gunohi bor? Mayli, qullikdan ozod qilmasa qilmasin, o'ldirsa meni o'ldirsin. Bu yosh bolalarning peshanasida nima yozilgan ekan», deb o'ylabdi-da, ko'nglidagini bolalarga aytib beribdi. Bolalar:

—Undoq bo'lsa bo'пти. Biroq sen ham bekorga o'lib ketma. Shu atrofdan ikkita kuchuk topaylik, shuni o'ldirib, yuragini olib borsang, sen ham qutulasan, — deyishibdi.

Bu qulga ham ma'qul tushibdi. Uchovlon cho'ldan ikkita kuchuk topib oidirishibdi. Qul ikki kuchukning yuragini olib qaytib ketibdi. Ikki bola: «Biz endi oyimizni unutaylik. Huv anavi ko'rinib turgan tog'ga qarab yo'l olaylik. Boshqa bir yurtga borib jonimizni qutqaraylik», deb yo'lga ravona bo'lishibdi.

Aka-uka ikkalasi yo'l yurib, yo'l yurganda ham mo'l yurib, cho'llardan o'tib, tog'lardan oshib bir yerga — ikki ayri yo'lning boshiga kelib to'xtashibdi. Qarashsa, bir yo'lga «Borsa kelar», ikkinchi yo'lga «Borsa kelmas» deb yozilgan ekan. Har ikkisi boshga tushganni ko'z ko'rar deb, kichigi «Borsa kelmas» yo'lga, kattasi «Borsa kelar» yo'lga ravona bo'libdi.

Akasi bir necha oylik mashaqqatli yo'llarni bosib o'tib, bir shaharga kelib qolibdi. Bundoq qarasa shaharda odamdan asar ham yo'q. Hamma kishi shaharning tashqarisiga chiqib ketgan. Buning sababini bilish uchun bola ham shaharning tashqarisiga chiqibdi. Bundoq qarasa, keng bir dalada lak-lak odam osmonga tikilib turgan emish. Bola ham osmonga qarasa, bir qush odamlarning boshi ustida aylanib uchib yurgan emish. Odamlardan ba'zilarining qo'lida o'pka, jigarga o'xshash allanimalarni silkitib, qushga qarab «gah-gah» deb qichqirishar emish. Bola surishtirib buning sababini bilib olibdi: bu shaharning podshosi yaqinda vafot etgan ekan. Lekin uning saltanatiga vorislik qiladigan farzandi bo'lmagani uchun podsho o'limi oldidan: «Saroyimdagi baxt qushini uchiringlar, qush kimning boshiga qo'nsa, o'sha podsho bo'lsin», deb vasiyat qilgan ekan. Bugun esa podshoning shu vasiyati bo'yicha qushni uchirib, har kim o'z baxtini sinab ko'rish uchun bu yoqqa chiqqan ekan. Bola bir mahal osmonga qarasa, qush unga qarab sho'ng'ib kelayotgan emish, olomon ham kimning boshiga qo'nar ekan deb, qushdan ko'z uzmay turishibdi. Qush sho'ng'ib kelib bolaning boshiga qo'nibdi. Bola: «Men podsholikni nima qilaman» deb, qushni boshidan olib uchirib yuboribdi. Odamlar unga ajablanib qarashibdi. Haligi qush aylanib kelib yana uning boshiga qo'nibdi. Bola tag'in uni uchirib yuboribdi. Uchinchi bora qush yana uning boshiga qo'nganida, xaloyiq uni qutlab, unamaganiga qo'ymay podsho

qilib ko'tarishibdi. Biz endi gapni uning inisidan eshitaylik. Inisi haligi «Borsa kelmas» yo'lidan ketaverib bir to'qayning ichiga kirib boribdi, undan amallab chiqib bir qo'rqinchli tog'ning ichiga kirib qolibdi. Qarasa, nariroqda bir yerdan qip-qizil olov ko'tarilib, keyin shu olov chiqqan yerdan uni nimadir o'z domiga torta boshlabdi. Bola bo'ronda uchgandek bir dumalab g'orning og'ziga borib qolibdi. U esini yig'ib mundoq qarasa, oldida boshi doshqozondek, yo'g'onligi chinordek, uzunligi qirq quloch keladigan bir ajdaho tilini ikki quloch chiqarib, vishillab turibdi. Bola o'z-o'ziga dalda berib, ajdahodan qutulish, iloji bo'lsa uni oidirish chorasini izlay boshlabdi. Shu payt ajdaho harakatga kelib, tog' bag'ridagi uydek keladigan bir toshni o'rnidan qo'zg'atgan ekan, u yerdan bir g'or ochilibdi. Ajdaho bolani haydab shu g'orga olib kiribdi. Bola: «Qani, buning ichidagi sirni ham bir ko'ray-chi», deb kirib qarasa, g'orning ichi turli jonivor va odamlar bilan to'la emish. Surishtirsa, bu ajdahoning yeydigan oziqlari ekan. Ajdaho har haftada bir bora ovga chiqib, yuzlab jonivorlarni va oldida uchragan odamlarni damiga tortib shu yerga olib kelar va bir chetdan kabob qilib yer ekan. Bola bu ahvolni ko'rib, qutulish payiga tushibdi. Uning yonida bir xanjari bor ekan, shu xanjar bilan g'orning bir chetini tesha boshlabdi. Bir mahal ajdaho g'orning og'zini ochib, o'n quloch keladigan temir sixini g'orning ichiga olib kirib, duch kelganni shu sixga sanchib, kabob qilib yeya boshlabdi. Bola g'or ichidagi odamlar bilan bir burchakka bekinib olibdi. Ajdaho besh-olti bora shunday qilib, kabobga to'ygandan so'ng, g'orning og'zini yopib qo'yib, o'zi tashqariga chiqib, g'orning og'zidagi toshga boshini qo'yib uyquga ketibdi.

Ajdaho bir uxlasa uch kecha-kunduz uxlar ekan. Bola uning uxlab yotganidan foydalanib g'orni teshishda davom etibdi. Ikki kecha-kunduz deganda bir odam sig'a- digan teshik ochib, tashqariga chiqib qarasa, ajdaho qattiq uyquga ketgan, yana bir tomonga qarasa, ajdahoning kabob pishiradigan sixi olovda cho'g'dek qizarib turibdi. Bola abjirlik bilan bu sixning sopidan ushlab, olovdan olib ajdahoning boshiga bir sanchgan ekan, ajdahoning boshi vishillab kuya boshlabdi. Ajdaho jon achchig'ida bir necha bor to'lg'anib, hayal o'tmay jon beribdi. Bola g'or ichidagi odam va jonivorlarni ozod qilibdi.



U yana yo'lga ravona bo'libdi, ketib borayotsa, oldidan uch qaroqchi chiqib qolibdi. Ular Ko'hiqofdan bir podshoni o'ldirib, uning uch sehrli narsasini o'marib kelishayotgan ekan. Ulardan biri-uchar gilam, ikkinchisi-minsa duldul, daryoga solsa ko'prik bo'ladigan hassa, uchinchi kimki kiysa ko'rinmas odamga aylanib qoladigan qalpoq ekan. Uch qaroqchi bu narsalarni bo'lisha olmay, janjallashib turganining ustiga kelib qolgan bu bolani ko'rib, undan bu narsalarni bo'lib berishni so'rashibdi.

Bola buni eshitib:

—Ma'qul, — debdi, — bittangiz menga o'q-yoyingizni bering. Men uch tomonga qarata uch o'q uzaman, har biringiz shu o'qning birini topib kelasizlar, kim birinchi topib kelsa, gilamni shu oladi, ikkinchi bo'lib kelgan hassani, uchinchi bo'lib kelgan esa qalpoqni oladi, bo'ptimi?

—Bo'pti, — debdi qaroqchilar.

Bola o'q-yoyni olib uch tomonga qarata uch o'q uzibdi, uch qaroqchi o'q uzilgan tomonga qarab yugurib ketishibdi. Bola shu zahoti haligi qalpoqni boshiga kiyib, hassani qo'liga olib, gilamga o'tiribdi-da:

- Uch, gilam! - debdi. Gilam osmonga ko'tarilib, bola ko'rsatgan tomonga qarab uchibdi, uch qaroqchi barmoq tishlagancha qolaveribdi.

Bola bir joyga uchib kelib, pastga qarasa, juda chiroyli bir bog' ko'rinibdi. Uning mana shu bog'da o'tirib dam olgisi kelibdi-da:

- Tush, gilam! — debdi. Gilam bog' ichidagi ajoyib bir chamanzor maydonga tushibdi.

Bu bog' shu mamlakat podshosi qizining ko'ngil ochadigan joyi ekan. Shu kuni bog'ga podshoning qizi chiqib kelgan ekan. Bolaning gilamda uchib kelib tushishi malikaning o'z kanizlariga meva terib kelishni buyurib, o'zi haligi chamanzorga orom olish uchun kelib turgan vaqtiga to'g'ri kelgan ekan. Malika bu gilamning karomatiga hayron bo'libdi. Bir amallab bu gilamni qo'lga kiritish payiga tushibdi-da, darhol o'zini bolaga oshiq bo'lib qolgan kabi ko'rsatib, turli-tuman shirin so'zlar bilan uni avray boshlabdi. Oy desa yuzi bor, kun desa ko'zi bor bu malikaning shirin so'zlariga uchgan yigit o'ziga yor qilib olish qaroriga kelibdi. Bolani avraganligidan xursand bo'lgan malika bu gilamni qandoq qilib qo'lga kiritish chorasini o'ylay boshlabdi va: «Gilamni bu yerdayoq olib qo'ysam bo'lmas, yaxshisi, bola bilan gilamga o'tirib bir cho'lga chiqaylik, uni o'sha

yerda qoldiraman-da, o'zim gilamga o'tirib uyimga ravona bo'laman», degan fikrga kelib:

— Unda ikkalamiz gilamga o'tirib atrofni bir sayr qilib kelaylik, — debdi. Malikaning hiylasini anglamagan bola:

— Bo'pti, o'tiring, sizni bir aylantirib kelay, — deb malikani gilamga o'tqazib osmonga ko'tarilibdi. Ular shu uchgancha birpasda bir cho'li jaziraga borib qolishibdi. Avval gilamdan bola tushibdi. Uning dam olish uchun o'tirganidan foydalangan malika:

— Uch, gilam! — deya osmonga ko'tarilib, uyiga ravona bo'libdi.

Buni ko'rgan bola darhol haligi qalpog'ini kiyib, hassasini duldul qilib minib ortidan quvlashga tushibdi. Qiz uyiga yetib borib gilamdan endi tushmoqchi bo'lgan ekan, bola ortidan yetib kelib sakrab gilamga tushibdi-da:

— Uch, gilam - debdi. Gilam tag'in havoga ko'tarilibdi. Yerga endigina oyoq qo'ymoqchi bo'lgan qiz o'mbaloq oshib tushibdi. Bola shu uchganicha akasini izlab, oxiri u turgan yurtga yetib kelibdi, uning bu yurtga kelishi akasining podsho bo'lishi kuniga to'g'ri kelgan ekan. Akasi so'raydigan mamlakat juda katta bo'lib, ularning o'z yurtlari kabi bir qancha yurtni o'z ichiga olar ekan. Akasi ukasi bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, darhol uni o'ziga o'ng qo'l vazir qilib tayinlabdi.

Oradan bir necha kun o'tib, aka-uka ikkalasi o'z yurtlarini eslab ketishibdi. Qora yurak onalari qanday yurganligini, soddadil otalarining ne ko'ylarga tush- ganligini o'ylab, oxiri o'zlari bir borib kelishni maslahat qilishibdi.

Endi ularning uyidagi gaplardan eshitaylik.

Onasi haligi qui keltirib bergan ikki kuchukning yuragini boyvachchaga beribdi. Qulni esa ozod qilibdi. Oradan bir necha kun o'tgach haligi boyvachcha tush ko'ribdi. Tushini ta'bir qilsa, haligi yegan yuraklari odamning emas, itning yuragi ekanligi ayon bo'libdi. U g'azabdan dir-dir titrab, o'zini qo'ygani joy topolmabdi. O'zining yaramas hoy-u havasidan bir xayr topa olmagan ayol ham arosatda qolibdi.

Oradan kunlar o'tib uning eri hajdan qaytib kelibdi. Xotini uning oldiga yig'lab chiqib:

— Siz ketgandan so'ng xudoning taqdiri bilan ikki o'g'limiz bilan gavhar tug'adigan tovug'imiz o'lib ketdi, — deb ko'z yoshi qilibdi. Eri ham

bundan yig'lab-qaqshabdi. Oxiri: «Qandoq qilamiz, xudodan kelgan baloga chora yo'q. Taqdirga tan beramiz-da», deb o'ziga tasalli beribdi.

Oradan bir necha kun o'tgach, ularning hovlisiga bir gilam uchib tushibdi. Qarashsa, uning ustidan podsholik liboslarini kiyib olgan o'zlarining ikki o'g'illari tushib kelayotgan emish. Buni ko'rgan chol: «Voy bolalarim», deya ularni quchoqlab, yig'lab ko'rishibdi. Onalari bo'lsa nima deyarini bilmay dovdirab qolibdi...

O'g'illar otasiga bo'lgan voqealarni, onalarining qora ko'ngillik bilan qilgan kirdikorlarini, o'zlarining boshlaridan o'tgan voqealarni birma-bir aytib berganlaridan so'ng chol g'azabiga chiday olmay xotiniga pichoq san chibdi.

Bolalar otalarini podsho bo'lishga taklif qilishgan ekan:

— Bu ish sizlarga loyiq, men bir keksa odam bo'lsam, qo'limdan bu ish kelmaydi, — deya podsho bo'lishga unamabdi.

Bolalar oxiri otalarini olib qaytishibdi. Haligi boyvachchani bir umrga zindonband etib, o'zlarini o'limdan qutqazib qolgan qulni so'l qo'l vazir qilib olishibdi.

## YOG'OCH OT

Qadim zamonda bir duradgor bilan bir temirchi bo'lgan ekan. Ular bir-birini mensimay doim bahslashar ekan. Bir kuni ikkalasi shu masalada gap talashib, qizishib ketishibdi. Duradgor:

—Mening hunarim senikidan ortiq, — desa, temirchi:

— Yo'q, mening hunarim senikidan ortiq, — deb turib olibdi.

Xo'sh, kimning hunari ortiq? Bu masala ustida ikkisi rosa bir kun talashib-tortishib, oxiri podshoning huzuriga borishibdi.

—Ha, nega keldinglar! Nima janjal bu? — deb so'rabdi podsho.

Duradgor bilan temirchi o'zlarining nima uchun tortishib qolganliklarini aytishgach, podsho biroz o'ng'aysizlanib:

— Men hali sizning qanaqa hunar ko'rsatishingizni bilmayman. Shuning uchun o'n kun ichida sizlar menga o'z hunarlaringizni namoyish etinglar, — debdi.

Bu gapni eshitgandan so'ng hunarmandlar o'z uylariga qaytishibdi-da, darhol ishga kirishib, hali hech qachon ishlatmagan ustaliklarini namoyish

etmoqchi bo'lishibdi. Rosa o'n kun to'lganda har ikkisi o'zi yasagan narsasini olib, yana podshoning huzuriga kelishibdi.

Temirchi bir temir baliq yasagan ekan.

Podsho buni ko'rib temirchidan:

— Bu nima bo'ldi? Nima xislati bor bu narsangning? deb so'rabdi.

— Xo'sh, podshohim, bu temir baliqning ajoyib xislati bor. Bunga minib daryoma-daryo, dengizma-dengiz suzib sayohat qilsa bo'ladi, juda katta yuk bosib dengizning u qirg'og'idan bu qirg'og'iga o'tkazsa bo'ladi, — debdi.

Podsho temirchining bu gapini eshitib:

— Hoy ahmoq! Buning o'zi bir temir bo'lsa. U suvga cho'kib ketmaydimi? Tag'in uning ustiga minib, yuk ortib o'tarmish, - deya masxara qilib kulibdi. Oxiri:

— Agar aytganing rost chiqmasa, o'z gunohing o'z bo'yningdami? — deb so'rabdi.

— Shundoq, taqsir, — debdi temirchi.

Podsho darhol yuz ming tog'ora oziq-ovqat oldirtirib, temirchiga:

—Qani bo'lmasa, mana shu oziq-ovqatni balig'ingga ortib, ko'rsatadigan karomatingni ko'rsat-chi! — debdi.

Shundan so'ng temirchi temir baliqqa oziq-ovqatlarni ortibdi. Uni suvga solib, bir murvatini buragan ekan, haligi temir baliq suv ustida xuddi tirik baliq kabi tez va ravon suzib ketibdi. Bu karomatni ko'rgan podsho hayron qolib, xursandligidan og'zi qulog'iga yetib temirchini maqtay ketibdi. Temirchi ko'lni bir aylanib sog'-salomat qaytganidan keyin podsho shod-xurram bo'lib temirchiga kattagina in'omlar beribdi.

Duradgor qanotli bir yog'och ot yasab kelgan ekan. Uning xislatidan xabarsiz podsho nazariga ilmay:

—Shu ham narsa bo'ldimi? Yosh bolalar o'ynaydigan o'yinchoqning xuddi o'zi-ku, — debdi.

Duradgor:

— Bu — yog'och ot. Uning o'ng qulog'ini burasa, darhol osmonga uchadi, so'l qulog'ini burasa, darhol yerga tushadi. Qancha tez burasa, shuncha tez va baland uchadi. Bunga minib xohlagan joyga borish mumkin, bir kun ichida butun dunyoni bir aylanib kelsa bo'ladi, — debdi.

Podsho bilan duradgor yog'och ot haqida so'zlashib turganida podshoning o'g'li shahzoda ham shu yerda ekan. Yog'och otning ucha olishi haqidagi gap shahzodani rosa qiziqtirib qo'yibdi, ko'nglidan: «Men fursatdan foydalanib, dunyoni aylanib ko'nglimni bir yozib kelsammikan», degan fikr kechibdi-da, otasiga:

—Otajon! Menga ruxsat bersangiz, mana shu yog'och otni bir sinab ko'rsam? — debdi.

Podsho:

—Yo'q, bolam, ruxsat bermayman. Bu otning sirini hali o'zim ham bilmayman. Rostdan ham ucha oladimi yoki yo'qmi — kim biladi? Qo'y, unga yaqinlashma! — debdi.

Duradgor otning rostdan ham ucha olishiga podshoni ishontirmoqchi bo'lib:

— Yo'q, podshohim! U chindan ham ucha oladi, hech xatarli joyi yo'q, o'ng qulog'i buralsa, uchib ke taveradi, - debdi.

Shahzoda bu gapni eshitib rosa qiziqib qolibdi. Podshoga yolvorib turib olibdi. Shahzoda podshoning nihoyatda suyib, erkalab voyaga yetkazgan o'g'li ekan. Odatda podsho uning talab qilgan narsasiga aslo yo'q demas ekan. Bu gal ham o'g'li shundoq yolvorib turib olganidan so'ng, podsho uning ko'nglini ranjitishga botina olmay, noiloj ruxsat beribdi.

—Undoq bo'lsa, o'g'lim, — debdi podsho, — mening sendan bir lahza ham ayrilgim kelmaydi. Bir nafas ko'rmasam tura olmayman. Mana shu yaqin atroflarda uchib kel, olisga ketib qolmagin. Otning ustida sergak o'tirgin, - deya qayta-qayta tayinlabdi. Shahzoda xursand bo'lib: — Bo'pti, ota, bo'pti! - deb otga minib, uning o'ng qulog'ini burabdi-da, hash-pash deguncha osmonga ko'tarilibdi. Birozdan so'ng shahzoda shundoq yerga qarasa, hay-hay-hay! Tog'lar, daryolar, dov-daraxtlar, uy-imoratlar, odamlar... Jamiki narsalar xuddi Jomi Jamshidda aks etganidek mitti-mitti bo'lib ko'rinar ekan. Qiziqib ketgan shahzoda otasining boyagi aytgan so'zlarini ham darhol esdan chiqaribdi. Ucha-ucha rosa yuksaklikka ko'tarilib ketibdi. Qancha yuqori ko'tarilsa, yer-zamin va undagi barcha narsalar shunchalik kichik va chiroyli bo'lib ko'rinibdi. Shahzoda juda xursand bo'lib, otning o'ng qulog'ini burayveribdi. Shundoq qilib, biroz

o'tmay boyagi tog'lar, daryolar, dov-daraxtlar va odamlarning hammasi shahzodaning ko'zidan g'oyib bo'libdi. Ucha-ucha shahzodaning qorni ochiqib qolibdi. Darhol otning so'l qulog'ini sekin-asta burab pasaya boshlabdi. Birmuncha pasayib, mundoq qarasa, boshqa bir shahar ko'zga tashlanibdi. Shahzoda asta-sekin yerga qo'nibdi. U yerga tushgach, bir karvonsaroyini topib, qornini rosa to'yg'azib, shu yerda yotib qolibdi. Ertasi kuni tong saharlab shaharni sayr qilgani chi- qibdi. U ko'chadan bu ko'chaga o'tibdi, tomosha qilib yurib kirmagan jinko'chasi qolmabdi. Tor ko'chalarning biridan o'tib, keng bir maydonga chiqib qolibdi. Qarasa, xuddi bozor yoki hayit kunlaridek tumonat odam maydonga yig'ilgan emish. Bu odamlarning hammasi, xuddi osmondan bir narsa tushadigandek, ko'zlarini ko'kka qadab turgan emish. Buni ko'rib shahzoda hayron qolibdi va o'zi ham shu olomon ichiga sirg'alib kirganicha boshini osmonga ko'tarib turaveribdi. Hech narsadan darak yo'q emish. Buning sababini bilish uchun yonida turgan kishilardan so'rabdi:

— Hoy og'alar, nimaga qarab turibsizlar?

Odamlarning ichidan bittasi unga qarab:

— Gapingizga qaraganda, siz bu yerga yangidan kelgan odamga o'xshaysiz. Bizning podshohimizning bir qizi bor. U shundoq chiroyliki, butun yer yuzidagi go'zallarni yig'ganda ham uning chiroyiga teng kela olmaydi. Oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, shu qadar chiroyli bir malika. Podsho uni o'zining jonidan ham ortiq ko'radi. Uni hech qanday ins-u jinga ko'rsatmay saqlaydi. Saroyda saqlashdan qo'rqib, tilsimot bilan osmondan bir muallaq ko'shk solib bergan. Har kunning oxirida podsho ana shu malikani bir yo'qlab tushadi. U hozir ham malikani yo'qlash uchun osmonga chiqib ketdi. Birozdan keyin qaytib tushadi. Biz hammamiz podshoning qaytib tushishini kutib turibmiz, — debdi. Bu gapni eshitgan shahzoda hayron bo'lib:

— Osmonda qandoq qilib uy solish mumkin? — deb so'rabdi.

Haligi kishi:

— Farishtalar yasab bergan emish, u yerga podsho- dan boshqa odam chiqa olmaydi, — debdi.

Shahzoda uning so'zlarini birin-sirin eshitib bo'lgach, o'z ko'nglidan nimalarnidir o'tkazib haligi karvonsa- royiga qaytibdi. El uyquga ketib, yarim kecha bo'lganida asta o'rnidan turib, yog'och otiga minganicha, haligi maydon tepasida osmonni bir necha bor aylanib, mundoq qarasa, qarshisida kattakon bir ko'shk havoda muallaq turgan emish. «Ha, mana shu ko'shk bo'lsa kerak», debdi-da, uning oldida otdan tushib, eshikni ochib ichkari kiribdi. Malika, otam yana qaytib chiqqanga o'xshaydi, deb o'ylab, yugurganicha eshik oldiga kelib qarasa, otasi emas. Malika hayron bo'lib: «Bu yerga odamizotning chiqishi mumkin emas, bu farishtalardan bo'lsa kerak», deb o'ylab, shahzodani juda izzat-hurmat bilan qarshi olibdi. Shahzoda mundoq qarasa, malika haqiqatan ham oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, juda nozik badan, sohibjamol bir qiz. Bir ko'rishdayoq unga oshiq bo'lib qolibdi. Ko'nglidan: «Mana shunday go'zal qiz bilan birga bo'lishim umrimning baxti, jonimning rohati emasmi? Nima bo'lsam bo'lay, endi bu qizni qo'ldan bermay», - degan o'y kechibdi. Shahzodaning o'zi ham juda kelishgan, xushsurat yigit ekan. Qizning ham otasi uni hech kimga ko'rsatmay, odam bolasi yo'q joyga olib chiqib qo'yganidan yuragi orziqib, ich-ichdan o'ksinib yurar, mana shundoq bir yigit bilan yo'ldosh bo'lishga ko'ngli tashna ekan. Shahzodaning farishta emas, balki odamzot ekanligini, bu yerga qandoq qilib kelib qolganligini bilganidan keyin malika rosa suyunib ketibdi.

Shundoq qilib, ikkisining toleyi bir chiqibdi. Ularga hech qanday dallachilikning keragi ham bo'lmabdi, birpasda ikkalasi apoq-chapoq bo'lib ketishibdi. Bir- birlariga orzu-niyatlarini ochiq-oshkora aytishibdi. Ikkalasining muhabbat o'ti alanga olibdi. Shu tariqa, tong otguncha bir-biriga izhori dil aytishib chiqibdi. Tong otgach, shahzoda otiga minib, boyagi karvonsaroyga qaytib tushibdi.

Shu kuni podsho odati bo'yicha qizini yo'qlab tushish uchun yana osmonga chiqibdi. Podsho har kuni malikaning yoniga chiqqanida uning vaznini tortib ko'rar ekan; chunki podshoning fikriga ko'ra ayol kishi erkakka yaqinlashishi bilanoq uning og'irligi ortar ekan. Bugun ham podsho qizini tortib ko'rsa, avvalgidan birmuncha og'irroq chiqibdi. Bu ahvolni ko'rgan podshoning g'azabi qo'zib, ko'zlari piyoladay, soqollari tikanday bo'lib, qizining yonida bir lahza ham o'tirmay darhol yerga

qaytib tushibdi. Ko'pchilik buni ko'rib hayron bo'libdi. Podshoning vaziri ham bu ahvolga hayron bo'lib, sekin podshoning oldiga kirib buning sababini so'rabdi. Podsho butun ahvolni vazirga bayon qilib, shunday amr qilibdi:

— Bu ishga mening aqlim yetmadi. Mendan boshqa ham osmonga chiqa oladigan odam bormi yoki? Sizlar tezda ana shu odamni bir amallab qo'lga tushiringlar, yo'qsa hammangizning boshingizni olaman!

Bu gapni eshitgan vazir:

— Ma'qul, podshohi olam, bu xizmatga biz boshimiz bilan tayyormiz. Bizda eng atqqli to'rt nafar botir bor. Podshohim, agar ruxsat etsalar shu to'rt nafar botirni malika o'tirgan ko'shkning to'rt tomoniga qo'ysak, ularning qo'lidan hali-ku odam ekan, qush ham qochib qutula olmaydi, - deb maslahat beribdi.

Podsho vazirning bu fikrini juda ma'qul ko'rib, kechasi bu to'rt nafar botirni o'zi osmonga olib chiqib, malika ko'shkining to'rt tomoniga qo'yib, o'zi qaytib tushibdi. Bu botirlar faqat uyg'oq vaqtlaridagina botir, agar uxlab qolsalar pashsha og'izlaridan kirib burunlaridan chiqib ketsa ham sezmaydigan botirlardan ekan. Podsho botirlarni o'rniga qo'yib, o'zi yerga qaytib tushar-tushmasdan ular uyquga ketishibdi. Shahzoda yana uchib chiqib, malika bilan tun bo'yi bexavotir aysh- ishrat qilib, ertasi kuni tong otganda tag'in yerga qaytib tushibdi. Shu kuni ham podsho qizining yoniga chiqib, odati bo'yicha uni tortib ko'rsa, yana vazni biroz ortiq chiqibdi; podsho g'azablanganidan o'zini qo'yarga joy topa olmay qolibdi. Shu orada malika haqidagi bu voqea butun shahar xalqiga yoyilib, kishilar orasida har xil mish-mishlar paydo bo'libdi. Podsho xijolat tortib qolibdi. Oxiri bu ishni bir yoqlik qilish uchun vazirga qattiq topshiriq beribdi:

— Undoq bo'lsa, podshohim, — debdi vazir, — biz malika o'tirgan ko'shkning ich-u tashini, ichkaridagi bor jihozlarni qizil bo'yoq bilan bo'yab qo'yaylik. Ertasi kuni butun shahar xalqini yig'ib tekshirib ko'raylik, agarda kimning libosida qizil bo'yoq dog'i bo'lsa, shuni ushlash kerak. Shundoq qilmasak, uni tutish mushkul, — deb maslahat beribdi. Podsho buni ma'qul ko'ribdi.

Shu kechasi shahzoda yana malikaning yoniga chiqibdi. Qarasa, ahvol butunlay boshqacha. Ko'shkning ichi-yu tashqarisi, barcha jihozlar



qip-qizil qilib bo'yalgan. Shahzoda bu bo'yoqning sababini anglab yetibdi. Mayli, nima bo'lsa bo'lsin, shahzodaning malika huzu- ridan ketgisi kelmay, shu yerda tunab qolibdi. Chunki malika bilan shahzoda, xuddi baliqqa suv lozim bo'lganidek, bir-biriga lozim ekan. Shuning uchun shahzoda bu yo'lda boshiga tushadigan mashaqqatlarni ham o'ylab o'tirmabdi. Shunday qilib, u malikani huzurida yana bir kecha tunab qolibdi. Ertasi kuni u qaytib tushmoqchi bo'lib mundoq qarasa, butun kiyim-kechaklariga, etigiga qizil bo'yoq yuqib qolgan ekan. Shahzodaning barcha liboslari oltin-marvarid bilan bezatilgan bo'lib, etigining nag'ali oltindan ekan; agar ularni tashlab yubormasa, siri fosh bo'lib, podshoning qo'lga tushib qolishi aniq ekan. Shuning uchun u liboslariga zarracha achinmay, shu joydayoq ularni yerga tashlab yuboribdi. O'zi yalang oyoq va ich kiyimlari bilan karvonsaroyga uchib tushibdi.

Bu shaharning kekxa bir muhtasibi bo'lib, u har kuni hammadan vaqtli turib, savob topish uchun uyma-uy yurib odamlarni namozga uyg'otar ekan. Shu kuni ham odamlarni uyg'otib, o'zi machitga kelaversa, nariroqda bir narsaning yal-yal tovlanib turganini ko'rib qolibdi. Bu nima bo'ldi ekan deb, yaqinroqqa kelib qarasa, bir shahzodaning liboslari, hamma joyiga oltin-marvarid qadalgan, etigining nag'ali oltindan. Chol xursandligidan terisiga sig'may ketibdi. U o'z ko'nglida: «Mening har kuni Olloh yo'lida qilgan xizmatimning ajri bugun qaytganga o'xshaydi. Bu Xudoyimning menga bergan in'omi bo'lsa kerak», deb o'ylab, Xudoga yuz ming bora shukronalar aytib, shu yerdayoq chakmon bilan etikni kiyib olib, boshqacha bir raftor bilan masjidga kirib boribdi. Lekin hali hech bir sirdan xabari yo'qligidan, bu liboslarni Yaratganning in'omi deb hisoblab, masjidga hammadan awal kirib o'tirib olibdi. Namozdan so'ng hamma hovliga chiqibdi. Bugun podshoning amriga ko'ra hech kim masjiddan tashqariga ruxsatsiz chiqmasligi kerak ekan. Shuning uchun hamma masjid hovlisida jam bo'libdi. Uning kiyimlarini ko'rgan jamoat hayron qolib, muborakbod etishibdi. Shu asnoda vazir hammani bir- bir tekshirib chiqib, oxiri muhtasibning yoniga kelib qarasa, uning liboslarida bo'yoq izi bor emish. Shu zahoti «Jallod!» deb qichqiribdi vazir. Jallodlar darhol uning qo'l-oyog'ini bog'lab, saroyga olib borib zindonga tashlashibdi.

So'ng qiynoq-qistovga olib so'roqqa tutishibdi. Oxiri uni o'limga hukm qilishibdi. Bu voqeadan butun shahar xalqi hayratga tushibdi. Har bir odam osmonga chiqqan kishi kim ekanligini bilishga oshiqar ekan. Bu voqea oxiri haligi shahzodaning ham qulog'iga yetibdi. Bu gapni eshitgan shahzoda, o'zi tufayli bir kekxa chol behudaga o'lib ketayotganligiga vijdoni chidamay, yuragiga og'ir bir tosh osib qo'yilgandek bo'libdi. Shahzoda shu zahoti yog'och otni qo'ltig'iga qisibdi-da, yugurganicha dor ostiga yetib boribdi. Qarasa, kekxa muhtasibning bo'yniga allaqachon doming sirtmog'i solingan. Shahzoda ovozinig boricha:

— Hoy jallod, to'xta! Cholni osma! Uning gunohi yo'q. Hamma gunoh menda; malikaning yoniga chiqqan men bo'laman. Malika bilan aysh-ishrat qilgan ham menman. Bu chol topib olgan liboslar — mening liboslarim. Meni o'ldir, uni qo'yib yubor! — deb qichqiribdi. Jallod buni eshitib to'xtab qolibdi.

Podsho bu cholning o'limini o'z ko'zi bilan ko'rish uchun shahar arkidan qarab turgan ekan. Jallod cholni o'ldirmay, paysallab qolganini ko'rgan podsho darhol voqeani ma'lum qilishlarini so'rabdi, yasovullar unga ro'y bergan ahvolni ma'lum qilishibdi. Podsho:

— Unda shu yigit o'ldirilsin! — deb hukm qilibdi.

Jallod cholni qo'yib yuborib, shahzodani bandi qilish uchun yaqinlashishi bilanoq, u payt poylab turib, yog'och otiga sakrab minib olibdi-da, o'qdek osmonga uchib ketibdi. Jallodlar og'izlarini ochganxa qolaveribdi. Buni ko'rgan podsho g'azabiga chiday olmay, hushidan ketib yiqilibdi. Shahzoda shu uchgan ko'yi malikaning huzuriga qo'nib, unga ahvolni bayon etib:

— Ikkimizning o'rtamizdagi voqea otangizga ma'lum bo'lib qoldi. Arang o'limdan qutulib keldim. Bu yerdan darhol qochib qolishga to'g'ri keladi. Ikkimiz Xudoning taqdiri bilan oshiq-ma'shuq bo'lib qoldik. Muhabbatimiz kundan kunga chuqurlashib ketdi. Sizdan bir nafas ham ayrilgim kelmaydi. Agar istasangiz, birgalikda qochaylik, debdi. Men ham siz bilan bo'lganim bo'lgan. O'lsam ham sizdan ayrilmayman, — debdi malika.

Ikkalasi otga minib uchib ketishibdi. Ucha-ucha bir yerga borganlarida malika qo'qqisdan:

—Voy, esim qursin, shahzoda, mening kichik chog'larimda onam menga ikki dona gavhar bergan edi. Erga tekkaningda bulardan birini qaynonangga, ikkinchisini esa qaynotangga berasan, degan edi. O'sha gavharlarni uyda unutib qo'yibman. Qaytib borib ularni olmasam bo'lmaydi, — debdi.

Shahzoda:

— Uchib yarim yo'lga keldik. Endi ortga qaytish xatarli,  
—desa ham malika: namga nima deb boraman. Bu — onamning menga bergan vasiyati, — deb unamabdi.

Shahzoda malikaning dilini og'ritmaslik uchun noiloj ruxsat berib, o'zi bir sahroda tushib qolibdi-da, malikani kuzatib qo'yibdi.

Podsho hushiga kelgach, darhol malikaning ko'shkiga ko'tarilibdi, qarasa malika yo'q. Podsho ho'ngrab yig'lab yuboribdi. Nima qilishini bilmay turgan ekan, malikaning yog'och otga minib guldirab uchib kelayotganligini ko'rib qolib, bir pana joyga berkinib turibdi. Malika ko'shkka kirib kelishi bilan podsho uni tutib olib, saroyga eltib bir xonaga qamab qo'yibdi.

Bu podshodan yiroq bir mamlakatda yana bir podsho bo'lib, uning bir o'g'li bor ekan. Malikaning chiroyi haqidagi ta'riflar shu podshoning qulog'iga yetgandan keyin uni o'z o'g'liga olib berish uchun qayta-qayta sovg'ichilar jo'natsa ham, lekin qizning otasi bu taklifni qabul qilmay kelayotgan ekan. Endi malika bilan shahzoda o'rtasida bo'lib o'tgan voqealar butun shahar xalqiga ayon bo'lganidan keyin, podsho nihoyatda uyatga qolib, qizini ko'zdan yiroq qilish uchun uni o'sha podshoning o'g'liga berishni o'ylab, darhol qo'shni mamlakat podshosiga ikki enlik xat yozibdi. Bu xatni olgan podsho to'y tadorigini ko'rib, o'g'lini bir necha vazir-u vuzaro va askarlarga qo'shib, as'asa-yu dabdaba bilan yo'lga kuzatib qo'yibdi.

Endi gapni malikaning oshig'i bo'lgan shahzodadan eshitamiz.

Shahzoda malikani ana keladi, mana keladi, deb bir kun kutibdi. Ikki kun, hatto uch kun ham o'tibdiki, hamon qizdan darak yo'q emish. Shahzoda: «Yo malika mendan yuz o'girdi, yo biron falokatga uchradi. Yog'och otimdan ham ayrildim. Bu cho'l-jazirada o'lib ketadigan bo'ldim. Jasadim qurt-qumursqalarga yem bo'ladigan bo'ldi», degan xayolga borib

chuqur oh tortibdi. Tevarak atrof keta-ketgan jazirama sahro, toshlari qaqshab yotgan tog'lardan iborat bo'lib, bu yerlarda odam qorasi nari tursin, hatto qush ham uchmas ekan. Kun haddan tashqari issiq bo'lib, qumning tafti xuddi tandir kabi yondirar ekan. Bir yoqdan kunning issig'i, ikkinchi yoqdan ochlik dardi, yana bir tomondan suvsizlik shahzodaning tinka-madorini quritibdi.

Kechga yaqin, salqin tushgandan keyin shahzoda o'rnidan qo'zg'alib, «savob qilsang — savatda suv turadi» deganlar, men ham bir savob ish qilib ko'ray, debdi-da, baland bir tog'ning boshiga chiqib, odam qorasi ko'rinarman deya atrofga nazar tashlabdi. Hech bir ins-u jinsdan darak yo'q emish. Shahzoda tag'in sirg'alib pastga tushibdi. Biroz yo'l bosib mundoq qarasa, qarshisida bir chamanzor bog' turgan emish. Turli noz-ne'matlar, meva-chevalar pishib yotgan, rang-barang chiroyli gullar ochilib turgan emish. Xullas, ariqlaridan suvlar sharqirab oqib yotgan, bulbullar sayrashib turgan ajoyib bir bog' ekan. Bir necha kundan beri ochlik va tashnalik azobini chekib kelayotgan shahzoda mevalardan totib ko'rish uchun bog'ga kiribdi. Lekin bog'da odam asari yo'q ekan. Shahzoda bir tup shaftoli tagiga borib, qorni to'yganicha shaftoli yebdi. Birozdan so'ng uni g'alati bir totli uyqu bosibdi-da, shaftoli shoxiga osilib uxlab qolibdi. Ertasi kuni uyg'onib, iyagini mundoq silab ko'rsa, oppoq soqol chiqib qolgan emish. Shahzoda, bu ne hodisa bo'ldi ekan deb, sakrab o'rnidan turib ketibdi. O'ylay-o'ylay buning tagiga hech yeta olmabdi. Oxiri shaftolidan gumon qilib: «Ha, gap mana shu shaftolida bo'lsa kerak. Endi nima qilsam ekan? Agar malika kelib qolsa, mening manavi bir qarich soqolimni ko'rib ne ko'yga tushar ekan», degan o'yga botibdi. Birozdan so'ng yana uning qorni ochibdi. Shaftolidan yeyishga qo'rqib, bir tup nashvati yoniga borib, sarg'ayib pishgan nashvatilardan rosa to'yganicha yebdi. Birozdan so'ng yana bir totli uyqu bosib kelibdi-da, nashvati shoxiga osilib uxlab qolibdi. Bir mahal uyg'onib, kerishib o'rnidan turayin desa, boshida bir og'irlik sezibdi. Boshini silab qarasa, bir juft uzun va qo'pol shox chiqib qolgan emish. Shahzoda hayron bo'lib: «Endi tamom bo'ldim. Odamlilik suratidan chiqib, hayvonlik suratiga kirib qoldim-ku. Malika menga qandoq qaraydi?» — deya dod-faryod ko'taribdi. Og'ir qayg'uga botganicha yana qattiq uyquga ketibdi, uyqusida

bir tush ko'ribdi. Tushida bir hassa tutgan oppoq soqolli chol uning yoniga kelib, boshlarini silab:

— Hoy bolam, senga qanday balo yo'liqdi? Nega buncha kuyinib yig'laysan? — deb so'rabdi. Shahzoda cholga o'z boshidan kechirganlarini birma-bir bayon qilib beribdi. Chol:

— Yig'lama, bolam, hechqisi yo'q. Sen bu bog'ning sirini bilmaganing uchun ham shu holga tushib qolibsan. Bu bog'dagi mevalarni yeyish sharti shuki, daraxtdagi mevalarni yerga tushib qoqi bo'lib qolganlari bilan qo'-shib yesa hech narsa bo'lmaydi. Hali ham bo'lsa sen endi qoqilarni yegin. Shunda soqoling bilan shoxlaring darhol tushib ketadi. Bolam, sen hargiz bu yerda yotmagin, bu joydan tezroq ketgin. Bu bog' — devlarning bog'i. Hozir ular uyquga ketgan. Agar bugunoq bu yerdan ketmasang, devlar uyg'onib qolgudek bo'lsa, seni tirik qo'ymaydi. Bu — mening senga nasihatim, — deya ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Shahzoda cho'chib uyg'onib, ko'zlarini uqalab qarasa — tushi ekan. Atrofga razm solsa odam zotidan asar ham yo'q. Biroz turgach, tushida ko'rgan cholning so'zlari esiga tushib, darhol shaftoli va nashvati daraxtining ostiga tushgan qoqilarni izlab topib yebdi. Chindan ham soqoli bilan shoxlari darhol yo'qolib, u yana avvalgi chiroyli qiyofasiga qaytibdi. Cholga g'oyibona ming-ming rahmatlar aytib, bu yerdan tezda ketish fikriga tushibdi. Atrofdagi tol chivichlarini sindirib olib, bir dona kat-takon savat to'qibdi-da, uning yarmiga daraxtdagi pishgan shaftoli va nashvati mevalarini, qolgan yarmiga ularning qoqilarini solib, yo'lga ravona bo'libdi. Bog'dan chiqib qarasa, yana to'rt tomon keta-ketgan cheksiz cho'l-biyobon, kunchiqar qaysi tomonda, kunbotar qaysi tomonda — bilib bo'lmaydi. O'zining yurti qaysi tomonda, malikaning shahri qaysi yoqda — bila olmabdi. Oxiri tavakkal qilib boshi oqqan tomonga yo'l olibdi. Qorni ochsa, shaftoli bilan nashvatilardan yeb, uyqusi kelsa, osmonni ko'rpa, yerni to'shak qilib, yotib-turib ketaveribdi. Shu tariqa yetti kecha-kunduz cho'l biyobonlarda tentirab yurib, oxiri bir ulkan tog'ga yetib boribdi. Tog'ning orasida ham bir necha kun yurib, tog'dan oshib o'tib, kattakon bir yo'ldan chiqib qolibdi. Bu yo'lga chiqib olganidan so'ng nafasini rostlab, nima bo'lganda ham odam bor yerga yaqinlashganga o'xshayman, shu yerda o'ltirib biroz hordiq chiqaray, ungacha birorta yo'lovchi o'tib qolsa, bu joy qanaqa joyligini bilib olarman deb, savatidagi

shaftoli va nashvatilardan yeb, dam olib o'tiribdi. Oradan biroz o'tmay bir to'p karvon yetib kelibdi. Shahzoda karvondan kunchiqargan borsa — o'z yurtiga, kunbotarga yursa sevikli malikasining yurtiga borishini bilib olibdi. Biroz o'ylab turgach: «Arslon izidan qaytmas, yigit — so'zidan» deganlar, men ham mana shu yo'ldan borib, bir iloj qilib malika bilan yog'och otimni qo'lga kiritaman-da, so'ngra yurtimga qaytaman, degan fikrda kunbotarga qarab yo'l olibdi. Ancha yo'l bosgandan keyin mundoq ortiga qarasa, bir to'p otliqlar tulporlarini o'ynatgancha, yerning chang-to'zonini chiqarib, haybat bilan kelmoqda ekan. Otliqlar yaqin kelgach, shahzoda mundoq qarasa, ularning o'rtasida bir necha soyabonli aravalar ham bor ekan. Ayniqsa, oldindagi bir arava shu qadar chiroyli bezatilgan ekanki, yal-yal tovlanib turishi odamning ko'zini qamashtirar ekan. Uni tortib kelayotgan to'rt otning osmonga uchgudek shahdi bor ekan. Bu aravaning ichida malikaning otasi xat bitib yuborgan podshoning o'g'li o'tirgan bo'lib, u malikani olgani borayotgan ekan. Otliqlar esa shu shahzodani himoya qilib borayotgan vazir va yasovullar ekan. Vazir shahzodaning yoniga yaqinlashganda baqirib qolibdi:

— Hoy bola, bu yerda nimalar sotib yuribsan?

— Men hech narsa sotmayman! — debdi shahzoda.

— Unda savatingdagilar nima? Ular shaftoli bilan nashvati, shekilli, — debdi qo'li bilan savatga ishora qilib.

— Ha, lekin bular o'zimga kerak-da! — debdi shahzoda. Vazir shahzodaning bu so'zlaridan ranjigandek bo'lib:

— Hoy, bunchalik qizg'anchiq bo'lmasang! Bir nechtasini sotsang bo'lmaydimi? Bizning yo'lga chiqqanimizga bir necha kun bo'ldi, kun issiq, shahzoda holsizlanib qoldi. Bu matohingni biz yemaymiz. Shahzoda yeydi. Shahzoda! — debdi.

Savat ko'targan shahzoda:

— Kim yeyishi bilan ishim yo'q, lekin sotmayman. Bu — mening yo'lda yeydigan ozig'im, o'zingiz ko'rib turibsiz, bu poyonsiz sahroda tosh bilan qumdan boshqa narsa topilmaydi. Sizlar-ku otdasizlar, mening ikki oyog'imdan bo'lak nimam ham bor? To biror manzilga yetib borguncha ochlikdan o'lib qolmasaydim, - debdi. Shu payt aravada o'ltirgan shahzoda vazirga:

— Tez olib kel shaftoli bilan nashvatini! — deb baqiribdi. Vazir o'z shahzodasining baqirganini eshitib, darhol yonidan bir tilla olib savat ko'targan shahzodaga otibdi. Shahzoda bularning kim ekanligini anglab yetganidan so'ng, yuragidagi dardini bildirmasdan, tillani olibdi-da, shaftolidan ikki dona, nashvatidan ikki dona beribdi. Ammo ularning qoqisidan bermabdi. Aravadagi shahzoda nashvati bilan shaftolilarni apil-tapil yebdi-da, yana yo'lga ravona bo'libdi. U shaftoli va nashvatilarni yeyishi bilan mast uyquga ketibdi. Oradan xiyla vaqt o'tganidan so'ng uyg'onib iyagi va boshini silab qarasa, yuziga bir qarich oq soqol, boshiga bir qarich qo'shaloq shox chiqib qolgan emish. Shahzoda qo'rqib ketib darhol aravani to'xtatibdi. Vazir bilan yasovullar tezda otdan tushib, aravaga yaqin kelishibdi. Mundoq ichkariga qarashsa — shahzoda yo'q. Uning o'rniga odam desa odamga, hayvon desa hayvonga o'xshamaydigan bir jin-alvastiga o'xshash maxluq o'tirgan emish. Ular juda qo'rqib ketishibdi. Nima voqea ro'y berganligiga hech kimning aqli yetmabdi. Shu orada haligi shahzoda ham orqadan piyoda yetib kelibdi. Vazir yugurib uning yoniga kelib:

— Sen boya bizga nimani sotgan eding? — deb so'rabdi.

Shahzoda pinagini ham buzmay:

— Nima bo'lsin, nashvati bilan shaftoli, — deb javob beribdi.

— Qanaqa shaftoli, qanaqa nashvati edi? — deb so'rabdi yana vazir.

— Qanaqa bo'lardi, shaftoli shoxida pishgan shaftoli, nashvati shoxida pishgan nashvati-da!

— Undoq bo'lsa, nega ularni yegandan so'ng bizning shahzodaga soqol bilan shox chiqib qoldi?

Shahzoda parvo ham qilmasdan, sekin aravaning yoniga kelib, undagi shahzodaning qiyofasiga bir nazar tashlab, salmoq bilan:

— Mening kecha-yu kunduz yeb kelayotganim shu nashvati bilan shu shaftoli, nega menga soqol bilan shox chiqmaydi, debdi va biroz o'ylanib turgan bo'libdi-da, so'ng nimadir yodiga tushgandek:

- Shahzoda shaftoli bilan nashvatini yeb bo'lganidan keyin uxlab qoldimi? — deya ko'pchilikka yuzlanib so'rabdi.

Ularning hammasi bir og'izda:

- Ha! Ha! Uxlab qolgan edi, - deb javob berishibdi.

- Mana shunisi chatoq bo'libdi-da! Buni endi kimdan ko'rsa bo'ladi. Sizlar bu yerlarning sirini bilmaysizlar. Bu sahroda nainki shaftoli bilan nashvati ekan, har qanday taom yegan kishining uxlashi mumkin emas. Biror narsani yeb bo'lib, darhol uyquga ketish juda xatarli! Uyquga ketishi bilanoq mana shu ahvolga tushib qoladi. Avvallari ham odamlar shu ahvolga tushib qolishgan, sizlarning bundan xabaringiz yo'q ekan- da, — debdi shahzoda. Buni eshitgach, ularning barchasi boshini qashib:

- To'g'ri, bizning bundan xabarimiz yo'q ekan,- deyishibdi.

Shahzoda bularni rosa boplaganidan juda xursand bo'libdi. Aravadagi shahzodaning turqini ko'z oldiga keltirib, juda kulgisi qistabdi. Lekin bildirmaslik uchun kulgidan o'zini zo'rg'a tiyib turibdi. Vazir bilan yasovullar o'rtasida bahs-munozara boshlanib ketibdi. Ba'zilari: «Shahzoda bu qiyofasi bilan zinhor malikaga uylana olmaydi, yaxshisi, shu yerdan ortga qaytaylik», desa, boshqa birovlari: «Biz shahzodani shu ahvolda qaytarib olib ketsak, podshohimizga nima deymiz? Buning bir ilojini topishimiz lozim», — deyishibdi. Shahzodaning o'zi esa qaytishga aslo rozi bo'lmabdi.

- Men o'lsam ham qaytmayman. Necha yildan beri qo'lga kiritib olmay, endi ming mashaqqat bilan qo'lga kiritmoqchi bo'lgan bu qizni tashlab qayga ham boraman.

Qandoq bo'lmasin, shu qizni olib ketish chorasini topinglar, — debdi u.

Oxiri vazir shahzodaga:

—Endi boshqa hech qanday chora yo'q. Oramizdan bir kelishgan yigitni topib, uni shahzodalardek kiyintirishimiz kerak. Malikani qo'lga kiritib, o'z yurtimizga qaytganimizdan keyin, uning janoblariga ko'nmasdan boshqa iloji qolmaydi, — deb maslahat beribdi. Shahzodaga bu fikr juda ma'qul tushibdi va shunday qilishga buyruq beribdi. Biroq oralaridan malikaga yoqqudek bir kelishgan yigit topilmabdi. Hech birining ko'rinishi shaftoli sotgan shahzodanikiga yetmas ekan. Ular oxiri shaftoli sotgan shahzodani avramoqchi bo'lishibdi-da, vazir unga o'z rejasini aytibdi. Bu shahzodaga rosa xush yoqsa ham, biroq sir boy bermaslik uchun:

- Bu o'z ishingiz bo'lgani uchun, o'zlaringiz hal etinglar. Men bir amallab yegulik topib, jonimni asrab yurgan yo'lovchiman. Meni xijolatga



qo'ymasdan, ketishimga ruxsat beringlar, — deya unamay turaveribdi. Vazir rosa yolvoribdi. Oxiri uni pul bilan avramoqchi bo'lib, yonidan besh tilla chiqarib beribdi, biroq shahzoda yana ko'nabdi. Yetti tilla chiqarib bergan ekan, u arang rozi bo'libdi. Shundoq qilib, bu yigitni kiyintirib, aravaga o'tqazishibdi. Aravadagi shahzodani esa boshqa aravaga o'tqazib, yuziga chimmat tortib, shoxini bir parcha mato bilan o'rab qo'yishibdi. Vazir unga shaharga borganda tashqariga chiqmaslikni qattiq tayinlabdi.

Quda bo'lgich podsho, bugun shahzoda keladi, deb, vazir-u vuzarolari va shahar xalqini boshlab ularga peshvoz chiqibdi. Qarasa, qizini oladigan shahzoda juda kelishgan bir yigit bo'lib, to'y uchun olib kelgan mol-dunyosi ham had-du hisobsiz ekan; buni ko'rgan podshoning bahri dili ochilib ketibdi. Lekin u, ikkinchi tarafdin, qizi borasida juda katta g'am-tashvishda ekan.

Qizining qilmishlari oshkora bo'lib qolmasin deb, shahzoda bilan uning to'yini apil-tapil o'tkazib, darhol ularni jo'natib yuborish niyatida ekan. Tezda katta mol-dunyo sarflab, to'yga tayyorgarlik ko'ribdi va yetti kecha-kunduz to'y qilib beribdi.

To'y kuni keksalar bir tomonga, yosh-yalanglar boshqa tomonga o'tirishibdi. Kecha-kunduz barcha mehmonlar yeb-ichish va o'yin-kulgi bilan mashg'ul ekan. Biroq podshoning o'y-fikri malika bilan shahzodada ekan. Xizmatkorlardan tinimsiz qiz bilan yigitning ahvolini so'rab turibdi. To'yning oltinchi kunigacha qiz yuzidan paranjini olmay, tomga qaraganicha yig'lab o'tiribdi. Boshqalar raqsga tushib, qo'shiq kuylab, g'azal aytib o'tirsa, qiz o'zining suygan yori bo'lmish shahzodani o'ylab nuqul yig'lar ekan. Podsho buni eshitib, yanada qattiqroq tashvishga tushibdi. Oyog'i kuygan tovuqdek bir yerda o'tirolmay qolibdi. To'yning oxirgi kuni, hamma avvalgidek o'z o'yin-kulgisi bilan ovora bo'lib yotganda, fursatdan foydalangan shahzoda malikaning qulog'iga sekin shivirlab o'zini tanitibdi. Malika avvaliga ishonmabdi. Oxiri paranjisini asta yechib mundoq qarasa, chindan ham o'zining suyukli shahzodasi ekan. Malika, o'ngimmi-tushimmi, deya boshi aylanib, tipirchilab qolibdi. Shahzoda boshqalar, ayniqsa, podsho buni sezib qolmasligi uchun malikaga sabr-toqat qilib o'tirishni aytibdi. Malika indamasa-da, ko'ngli

ancha taskin topibdi. Shahzoda fursat topib, qizga o'zining bu yerga qanday qilib kelib qolganligini aytib beribdi va:

— Ertaga podsho bizni kuzatib qo'yadi. Biz sizni olish uchun kelgan shahzodaning yurtiga yetib borganimiz-da, siz uning amridan chiqa olmay qolasiz. Meni esa u yurtdan haydab yuborishadi. Shuning uchun biz hozirdanoq qandoq qilib bo'lsa ham uning qo'lidan qutulish taraddudini ko'raylik. Bir iloji — qochish kerak. Qochish uchun esa yog'och ot lozim bo'ladi. Siz ertaga: «Otam yog'och otni bermasa ketmayman», — deb turib oling. Podsho har xil do'q-po'pisalar qilsa ham, siz zinhor qo'rqmang. Sizni hech narsa qila olmaydi. Yog'och otni qo'lga kirita olmasak, bizning ayrilganimiz ayrilgan, - debdi Buni malika bajonidil amallashga va'da beribdi. Shu kuni to'y rosa qizibdi. Butun olomonning diqqat-e'tibori yigit bilan qizning muhabbatida ekan. Vaziyatni bilish uchun kelgan bir kampir bu ikkalasining ochilib-sochilib chaqchaqlashib o'tirganini ko'rib, darrov buni podshoga yetkazibdi. Buni eshitgan podshoning ko'ngli taskin topibdi. Endi hamma gap yo'lga tushishga qolibdi. Tong otibdi. Ertalabdanoq hamma mehmonlar shahzoda bilan malikani kuzatib qo'yish tadorigini ko'ra boshlabdi. Shahzodaning otini to'qlab, aravalarini yo'lga tayyorlab qo'yishibdi. Hamma malikaning chiqishini kuta boshlabdi. Lekin malika chiqmas emish. Bu ahvolga hamma hayron bo'libdi. Podsho malikaning chiqmay, shuncha mehmonlarni kutdirib qo'yganidan qattiq xafa bo'libdi. Darhol bir kanizakni ichkariga kiritib yuboribdi. Kanizak qaytib chiqib, podshoga: Podshohi olam, malikaning chiqmasligiga bir sabab bor ekan,—debdi. Ha?! Qanaqa sabab? Otam yog'och otni qo'shib bermasa, ketmayman deydi, — debdi kanizak. Podsho g'azabga kelib, «Jallod!» deya darhol jallodni chaqiribdi. Jallodlar darhol hozir bo'lishibdi. Mehmonlar bu ahvoldan ang-tang bo'lib qolishibdi. Oxiri olisdan kelgan mehmonlardan birisi podshoga tasalli berib: Qo'ying, podshohim, shu arziyas narsaga xafa bo'lishning hojati yo'q. Yosh bolalar o'yinga o'ch bo'ladi, mayli, zerikkanida o'ynab ko'nglini yozar. So'ragan narsasini beravering, — debdi.

Podsho mehmonlarning yuz-xotiri uchun noiloj yog'och otni malikaga qo'shib beribdi. As'asa-yu dabdaba bilan qiz-yigitni kuzatib qo'yishibdi.

Bir necha kun yo'l bosishib, soqol-shoxli shahzodaning yurtiga yaqinlab qolishibdi. Lekin qochish uchun qulay fursat topa olishmabdi. Agar saroyga kirib borishsa ish chatoq. Shahzoda yana malikaga gap o'rgatibdi:

— Siz saroyning oldiga borganda, o'z qo'lim bilan yetti tovoq tillani xalq boshidan sochmasam, saroyga kirmayman, deng. Ular noiloj tilagingizni qabul qilishadi. Tillani olib chiqishganda yerga sochib yuboring. Undan avval butun vazir-u vuzaro, shahzodaning o'zi ham chiqib tursin, deng, bunga ham rozi bo'lmay ilojlari yo'q. Hamma tilla bilan bo'lib ketganida, biz fursatdan foydalanib yog'och otga minib qochamiz, — deb maslahat beribdi.

Naq saroy oldiga kelganlarida malika shahzoda o'rgatgani kabi o'z tilagini aytibdi. Bu hammaga ma'qul tushibdi. Shahzoda bilan malika bo'lsa yog'och otga minib, uning o'ng qulog'ini qattiq burashgan ekan, ot osmonga o'qdek uchib chiqib ketibdi. Olomon hayron bo'lib, osmonga qaragancha qolaveribdi... Shundoq qilib, ular shahzodaning yurtiga sog'-salomat qaytib kelishibdi.

Podsho o'z o'g'lidan ayrilganidan keyin kecha-yu kunduz oh uraverib holdan toyib qolgan ekan. Buning hammasini podsho yog'och otni yasagan duradgordan ko'rib, avval uni zindonga tashlatgan, bundan ham taskin topmay, uni shaharning eng katta darvozasiga chormix qilib qo'yishni buyurgan ekan. Shahzodaning yetib kelgan kuni haligi duradgorni darvozaga mixlash uchun olib ketishayotgan fursatga to'g'ri kelibdi. Shahzoda yetib kelishi bilanoq otasidan duradgorni surishtiribdi. Ota- sig'a yog'och otning xislatini, bu ot o'ziga qanday yordam berganligini, agar shu ot bo'lmasa, bundoq katta ishlarning uddasidan chiqa olmasligini, umuman biror-bir yumushni eplaydigan abjir odam bo'la olmay, g'o'rligicha qolib ketishi mumkinligini, ayni paytda shundoq chiroyli, dono malikaga ega bo'la olmasligini, shuning uchun ham duradgor katta in'om-mukofotlarga loyiq ekanligini birma-bir aytib beribdi. Otasi shahzodaning bu so'zlarini eshitib, duradgorni jazoga hukm etganligidan xijolat bo'lib, tili kalimaga aylanmay qolibdi.

Duradgorga jazo berilganligini eshitgan shahzoda darhol bu hukmning bekor etilishini talab qilibdi. Podsho nohaq hukm chiqarganligidan

pushaymon bo'lib, darhol duradgorni ozod qilibdi. Shahzoda shu zahoti duradgordan qayta-qayta uzrlar so'rab, katta in'om-ehsonlar beribdi va uni o'z hunarini yanada oshirishga rag'batlantiribdi. Keksayib qolgan podsho esa shahzoda bilan malikaga qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qilib berib, so'ng podsholik taxtini o'z o'g'liga topshiribdi.

## AQLLI ODAM

Qadim zamonda bir podshoh o'tgan ekan. Kunlarning birida podshoh qirq bir vazirni oldiga chaqirib, sinab ko'rish maqsadida:

— Sizlar uchar qushning yomonini, daraxtning yomonini, odamning eskisini qayerdan bo'lsa ham to- pib kelinglar! - deb buyuribdi. Vazirlar tushunib:

— Ma'qul, — deb chiqib ketishibdi. Lekin ko'ngillarida bu ishning natijasi yomonlik bilan tugashidan cho'chishibdi. Axiyri maslahatlashib, qirg'ovul bilan chopilgan tikanni yomonga chiqarishibdi. Endi eski odam topish maqsadida yurganlarida, oldilaridan kiyimlari yirtiq-yamoq, bir kishi chiqib qolibdi. Ular: «Shaharda emas, balki changalzorda yashaydigan odamga o'xshaydi», — deb oldiga borishibdi.

— Hoy odam, nima uchun changalzorda yurishni yaxshi ko'rasan? — deb so'rabdi. Vazir.

— Bizlarga shaharda kun ko'rishga yo'l bo'lsin. Changalzorda esa men bilan hech kimning ishi bo'lmaydi. Shuning uchun changalzorni yaxshi ko'raman, — deb javob beribdi u.

Bu gapdan so'ng vazirlar bir-birlariga qarab qo'yishib: «Bundan ham eski odamni qayerdan topamiz? Biz izlagan odam mana shu», — debdilar. Vazirlardan biri:

— Hoy odam, sen biz bilan podshohning oldiga borasan, — debdi.

Eski chopon kiygan odam:

— Podshohning oldiga boradigan ish qilganim yo'q, — deb javob beribdi.

Shunda yana bir vazir:

— Haqiqatni aytib, keyin podshohning huzuriga olib bormasak bo'lmaydiganga o'xshaydi, — debdi. Bu qolgan vazirlarga ham ma'qul tushibdi, shunda ularning biri:

— Podshoh bizga uch xil vazifa bergan. Ulardan ikkitasini topdik, daraxtning yomoni deb tikanni, qushning yomoni deb qirg'ovulni tanladik. Uchinchisiga esa biz sizni tanladik. Siz podshohning oldiga eski bo'lib borasiz, — debdi.

— Unday bo'lsa, — debdi haligi odam, — men borishga roziman, lekin yuqoridagi ikki xil «yomonni» to'g'ri tanlamabsizlar. Uchar qushning yomoni — zag'izg'on: u ot-eshakning yag'rinini cho'qib qaqshatadi. Odamga xushxabar olib kelmaydi. Daraxtning yomoni — harom shox: u mevali daraxtlarni aynitadi. O'zim haqimda esa hech nima demayman, mayli podshohning qoshiga boraman.

Vazirlar bu odamni podshohning oldiga olib kelibdilar. Bu odam xonaga kirib qarasa, podshoh nonni aylantirib o'ynayotgan ekan. Podshoh keltirilgan narsalarga qarab:

— Bularni qanday topdinglar? — deb so'rabdi vazirlaridan.

— Biz uzoq vaqt izlab qirg'ovul bilan tikanni topgan edik. Ammo bizning tanlaganlarimiz mana bu odamga yoqmadi. Shunda uning aytganlarini olib keldik, - deb javob beribdi bosh vazir.

Podshoh eski chopon kiygan odamga qarab: «Bilib aytganmikin yoki xayoliga kelganini aytaverganmikin?» deb sinab ko'rmoqchi bo'libdi va undan:

— Mening otamning kasbi nima? — deb so'rabdi.

— Men kirganda siz nonni orqangizga berkitib o'ynab turgan ekansiz. Shu zahotiyoyq nowoy bilan bog'liq ekanligingizni angladim, — deb javob beribdi boyagi odam.

— Men qachon o'laman? — deb yana savol beribdi podshoh.

— Boshingizga soya bo'lgan xalqni unutganingizda o'lasiz, — deb javob beribdi.

Podshoh bu so'zni darhol tushunibdi. Bu odamni o'ziga maslahatchi qilib tayinlashdan ilgari onasiga savol bilan murojaat qilibdi:

— Mening otam kim edi, u qanday kasb bilan shug'ullangan? — deb so'radi.

Onasi podshohning g'azabidan qochib qutula olmasligini sezib:

— Sizning o'z otangiz novvoy, bizning qo'shnimiz edi. Sizni boqib olganligimni shoh bilmagan. Men hadeb qiz tug'averdim, shohning armoni o'g'il edi. Og'iroyoqli vaqtimda: «Agar yana qiz tug'sang seni o'ldiraman», — deb ovga jo'nadi. Ko'zim yorib qarasam — yana qiz, uni ko'zdan yo'qotish chorasini izladim, qo'shnimiz novvoyning oilasida esa siz dunyoga kelgan ekansiz. Novvoyga pul berib, qizim bilan sizni almashdik, — deb javob beribdi.

Podshoh shunda bu odamning aqliga qoyil qolibdi va uni yaxshi kiyintirib, o'ziga maslahatchi qilib tayinlabdi. Vazirlar chiday olmay, uning ketiga tushishibdi.

Podshohning go'zallikda tengi yo'q bir qizi bor ekan. Kelgan sovchilar qizning shartini bajara olmay hayron ekan. Shahzodalar qizning ishorasini tushunmay sargardon bo'libdilar. Vazirlar bu odamning ham sargardon bo'lishini istab: «Shohimizning bir qizi bor, shunga uylansang», — degan taklifni beribdilar. Aqlli odam o'ylab ko'rib, qizga sovchi yuboribdi. Qiz javob o'rniga bir parcha oq qog'oz bilan bigiz chiqaribdi.

Aqlli odam darhol qog'ozni olib yurakka o'xshash qilib taxlab, bigiz uchi bilan teshibdi va kanizak qizning qo'lga beribdi. Qiz: «Endi ishoramga to'g'ri javob topdim», debdi. Qizlar so'ragan ekan:

— Men muhabbat qog'ozdan ham oq bo'lishi kerak, deb o'ylagandim. Ammo bu odam yurakdan sevish bunday bo'ladi degan javobni yo'llabdi.

Shunday qilib bu aqlli odam poshohning qiziga uylanibdi. Podshoh eski chopon ichidan chiqqan odamni o'zining barcha vazirlaridan yuqori qo'yibdi. Vazirlarning esa rangi sarg'ayib, hasratidan chang chiqibdi.

## KETMON

Bir podshohning ikki arzanda o'g'li bor ekan. Shahzodalar biror-bir ish qilishmay, erka-tantiq bo'lib o'sishibdi. Ular ulg'aygani sari ishtahalari bo'g'ilib bir piyola choy ham icholmay qolishibdi. Kundan kunga ularning rangi za'faron bo'lib, kasalmand odamlarga o'xshab boraverishibdi. Podshoh o'z mamlakatidagi barcha tabiblarni yig'qib o'g'llarini davolashni buyuribdi. Ammo tabiblar har qancha chora-tadbir qilishmasin, bari bir foydasi bo'lmabdi. Shahzodalarning ishtahasi

ochilmabdi, ranglariga qon yugurmabdi. Ishtaha ochishning davosi nimada ekanligiga aqllari yetmabdi. Axiyri shahzodalarning o'zlari ishtaha dorisi topish maqsadida qo'shni mamlakatga borishga jazm qilishibdi. Podshoh rozilik berib, ularni yo'lga kuzatibdi. Shahzodalar yo'lda ketayotganlarida dalada ketmon chopayotgan bir dehqonga duch kelishibdi. Shahzodalar otdan tushib cholg'a salom berishibdi.

— Buva, bizning ishtahamiz yo'q, borgan sari ovqat tanovul qololmaydigan bo'lib boryapmiz. Ishtaha ochadigan dori sotiladigan joyni qaerdan topsak bo'ladi, aytib berolmaysizmi? — deyishibdi shahzodalar.

Shunda chol:

— Aytib berardim-u, biroq hozir vaqtim biroz tig'izroq. Juda ishim ko'p. Ertaga bug'doy sepish uchun bugun mana shu dalani chopib, tekislab chiqishim kerak.

Ishlarimdan qutulgach, sizlarga u dorini o'zim topib beraman, debdi chol.

— Bo'lmasa, siz uyingizga borib dorini olib kelavering, biz ishingizni bitkazishga yordam beramiz, — deyishibdi shahzodalar. Ular cholning ketmonini olib ishga tushib ketishibdi. Chol doft olib kelguncha shahzodalar tinmay ishlashibdi. Chol qora terga botgan, horib- charchagan shahzodalarni kechqurun uyiga boshlab kelibdi. Kampir ular kelguncha osh pishirib turgan ekan. Chol va shahzodalar dasturxon atrofiga o'tirishgach, kampir oshni suzib olib kelibdi. Mehnatdan qorni ochgan shahzodalar oshni talashib-tortishib yeyishibdi. Qorin- lari kampir bergan oshga to'y-mabdi, yana so'rashga esa iymanishibdi.

— Buva, palov juda shirin bo'libdi. Unga qanaqa dori qo'shilgan edi? — deb so'rashibdi shahzodalar.

— Oshga hech qanday dori qo'shilgani yo'q, sizlarni ishga soldim, xolos, - deb javob beribdi chol. - Bo'g'ilgan ishtahaning dorisi — sizlar ishlatgan ketmon.

### **CHUQURDAGI BEDANA**

Bor ekan-u, yo'q ekan, qadim-qadim zamonda ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bir kambag'al dehqon bo'lgan ekan. Bu dehqonning faqat birgina eshagi bor ekan. Qish yaqinlashib, eshak uchun oziq yig'ish zarur bo'lib qolibdi. Shu niyatda dehqon eshagini o'zi bilan yetaklab, o'tloqqa

yo'l olibdi. U eshagini bir yerga bog'lab, uzoq yurib bug'doydan qolgan o'tlarga ko'zi tushibdi va ularni o'ra boshlabdi.

Shu vaqtda qo'lga qushini qo'ndirib, qora otni yo'r- g'alatib, itini oldiga solib, Tojioxun boy bedana oviga chiqibdi. Ovi ko'ngildagidek bo'lmay, qattiq ranjigan boy bug'doyzorda kambag'alga yo'liqibdi.

— Hoy, qari chol, bu yerda nima qilib yuribsan? — deb dehqonni ahmoq qilmoqchi bo'libdi.

— Boy ota, tirikchilik, g'amida yuribman, — debdi dehqon.

— Hoy, chol, sen o't o'ryapman deb, bug'doyni o'ryapsan-ku, bu nima qilganing? — debdi boy.

— Yo'g'-ey, taqsir, o'radigan bug'doyning o'zi yo'qku, — debdi dehqon.

— Men bug'doy o'rayotganingni ko'rdim-ku, yolg'on gapirishingni qara, - debdi boy.

— Taqsir, mening ko'zlarim yaxshi ko'rmasa-da, qo'llarim bug'doyni taniydi. Mening o'rayotganim bug'doy emas, - debdi dehqon so'zini isbotlab.

Boy kambag'al dehqon bilan o'chakishda davom etib:

— Nega mening so'zimga ishonmaysan, sen o'rayotgan joylaringning hammasi bug'doy, mana bu yerda bug'doy yo'q, shu yerdan o'r, — deb chuqur bor yerni ko'rsatibdi. O'zi bir-ikki qadam orqaga tisarilib, otiga minib qarab turibdi. Dehqon boy ko'rsatgan yerdan o't o'rayotib, chuqurga tushib ketibdi. Buni ko'rgan boy xoxolab kulib:

— Shu ahvolda o't o'raman deb yuribsanmi, ahmoq, — debdi.

Dehqon chuqurga yiqilib tushganda, qo'lga bir bedana tushib qolibdi. Dehqon uni tutib olib, chuqurdan boshini chiqarib turib:

— Boy, siz meni qari deb kamsitdingiz, sizga aytgan edim-ku, ko'zim yaxshi ko'rmasa-da, qo'llarim hushyorlikni yo'qotgani yo'q deb. Ishonmadingiz, mana, siz qo'lingizdagi qushingiz, itingiz va otingiz, ya'ni jami sakkiz ko'z bilan topa olmagan bedanani men so'qir ko'zlarim bilan topdim, — deb qo'lidagi bedanani boyga ko'rsatibdi.

Boy dehqonning qo'lidagi bedanani tortib olishga harakat qilmoqchi bo'lib, qamchisi bilan otga urgan ekan, cho'plar orasidagi boshqa bir chuqurga otining oyog'i tushib ketibdi. Otining buti yirilib o'rnidan qozg'alolmay qolibdi. Boyning qo'lidagi qush esa otning ostida qolib, majaqlanib o'libdi. Boyning semiz qorni otning egariga qattiq tegib



yorilib ketibdi. Dehqonning qo'lidagi bedana esa cho'chib, qo'ldan chiqibdi-yu:

Pitbildiq, pitbildiq, Ochko'z boy bo'ldi  
pachiq. Pitbildiq, pitbildiq, Qilolmadi  
cholni ahmoq, —

deb kambag'alning boshidan uch marta aylanib, uchib ketibdi.

Dehqon chuqurdan eson-omon chiqib, o'zni o'rishda davom etibdi. Kambag'alni ahmoq qilmoqchi bo'lgan boyning o'zi ahmoq bo'lib qolib, yotgan joyida til totmay o'libdi.

### AQLLI BOLA

O'tgan zamonda bir bolaning otasi olamdan o'tib, onasi bilan o'sgan ekan. Bir kuni bu bola qo'shnisinikidan tuxum o'g'rilab chiqibdi. Buni onasi bilib tursa-da, hech nima demay, tuxumni pishirib beribdi. Bir necha kun o'tgach, tovuq o'g'irlab kelibdi, ona uni ham pishirib beribdi. Kunlardan bir kun bola bironing qo'zisini o'g'irlab kelibdi. Uni ham onasi pishirib beribdi. Shu tariqa bola davom etib, bozordagi do'konlarga tusha boshlabdi. O'g'irlab kelgan mollarini onasi indamay qabul qilaveribdi. Natijada bola uch marta o'g'rilik bilan ushlanib hibsga tushibdi, to'rtinchi marta qo'lga tushganda, xon bolani dorga osishini buyuribdi. Bola dor oldiga borganda, xonga iltimosi borligini aytibdi. Xon ruxsat etibdi.

Bola:

— Men onamning sutiga to'ymagan bolaman, o'limim oldidan onamni bir ko'rib to'yib olsam, onamni olib kelishlariga ijozat bersangiz, - debdi. Onani bolaning qoshiga keltirishibdi. Bola onani ko'rib, yig'lab yuboribdi va:

— Meni dorga osishyapti, ona, tilingni chiqar, men bir so'rib olay, - debdi.

Onasi tilini chiqaribdi. Bola onaning tilini tishlab, uzib olibdi. Ona atroflga qarab yig'labdi. Xalq: «Bu nima qilganing?» — deb so'rabdi.:

— Mening dorga osilishimning sababchisi shu til va onamdur. Men ilk bor tuxum o'g'irlab kelgan vaqtimda hech nima demay pishirib berishning o'rniga, orqamga bir urib, tuxumni o'z joyiga oborib qo'y deganida, hozirgi ahvolga tushmagan bo'lar edim, — debdi u.

Xon voqeani tushunib, bolani bo'shatib, o'rniga onasini dorga osibdi.

### **TULKI VA BEDANA**

Tulki bilan bedana ikkisi do'stlashibdi. Bir kuni tulki:

—O'rtoq, meni bir to'yg'azsang-chi, — debdi. Bedana «ma'qul» deb, yaqinda to'yi bo'lgan bir juvonning dalada ishlayotgan eriga idishda go'shtlik sho'rva olib kelayotganini ko'rib qolibdi. Bedana juvonning oldiga tushib, palaqlab qanotini yozibdi. Buni ko'rgan juvon idishni qo'yib bedanani quvlabdi.

Orqadan tulki kelib idishdagi go'shtni yeb, qornini to'yg'azibdi. Bedana kelib:

— To'ydingmi? — deb so'rabdi.

Tulki:

— To'ydim, — debdi.

Tulki:

— Endi meni bir kuldirsang-chi, — debdi.

Bedana «ma'qul» deb, o'tloqda sigir sog'ayotgan bir juvonning boshiga qo'nibdi. Buni ko'rgan juvonning otasi:

— To'xta, qizim boshingdagi bedanani tutib olay, - deb kaltak bilan urgan ekan, juvon yiqilib tushib hushidan ketibdi. Uni ko'rgan tulki kulib yuboribdi.

— Kuldimgi, o'rtoq? — deb so'rabdi bedana.

— Juda kuldirding, do'stim. Endi bir qo'rqitgin, — debdi tulki.

Unday bo'lsa, ko'zingni yum deganimda yumib, och deganimda ochasan,— debdi..

Tulki «ma'qul» debdi. Bedana tulkiga «Ko'zingni yum!» debdi. Shunda ovchilarning itlari tulkini quvlay ketibdilar. Tulki bor kuchi bilan yugurib, ovchilardan arang qutulibdi. Qo'rqib ketgan tulki tilini osiltirib, bedananing oldiga boribdi. Bedana hol-ahvol so'raguncha, jahli chiqqan tulki uni og'ziga solibdi.

Tulkining og'ziga tushib qolgan bedana undan yolvorib: «Men o'zing aytganingni qildim, endi sen ham menga bir-ikki og'iz so'z aytishga ruxsat bergin», — debdi. Tulki rozi bo'libdi.

— Unday bo'lsa birdan oltigacha sanagin, men o'zimni to'g'rilab og'zingga kirib ketay, — debdi bedana.

Tulki «bir» deb sanashni boshlab og'zini ochgan ekan, bedana qanot qoqib uchib ketibdi, quyrug'i esa tulkinining og'zida qolibdi.

— «Yomonning tabiati o'zgarmaydi» degan gap rost ekan, — deb bedana uchib ketibdi.

### **FIL BILAN MAYMUN**

Bir kuni o'rmonda fil bilan maymun bahslashib qolibdi.

— Men kattaman, - deb gap boshlabdi fil. - Kuchim ham ko'p. Daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlay olaman. Seni nimaga ham kuching yetar edi?! Men sendan ko'ra chaqqonman, — debdi maymun. — Istagan daraxtga chiqa olaman. Daraxtning shoxiga dumim bilan osilib o'ynayman. Sen shunday qila olasanmi? Ular o'zlarini maqtab, bir-birini erga urib zerikishibdi. Nihoyat bu masalani ajrim qilib berish uchun ukkning oldiga borishibdi.

— Bizning fikrimiz bir joydan chiqmayapti. Qani, xolis aytschi, kuch yaxshimi, epchillikmi? — deb so'rashibdi ular.

Ularning maqtanchoqligini ko'rgan ukki:

— Buni awal sinab ko'rish kerak, — debdi. — Mana bu daryoning narigi tomonida bir tup olma daraxti o'sadi. Sizlar borib menga ana shu olmadan ikki dona olib kelib beringlar. Men shunga qarab ajrim qilaman.

Fil bilan maymun yo'lga tushishibdi. Ammo pishqirib oqayotgan daryodan o'tishga maymunning yuragi betlamabdi.

— Kel, ustimga minib ol, — debdi fil g'urur bilan. — Men kattaman, kuchim ham ko'p. Bunday suvni kechib o'tish menga hech gap emas.

Maymun filga minib daryodan o'tibdi. Ular ukki aytgan olmaning tagiga kelibdilar. Biroq olma daraxti shu qadar baland ekanki, uning mevalarini pastdan turib terish juda mushkul ekan. Shunda fil daraxtni ildizi bilan sug'urib olmoqchi bo'libdi. Ammo kuchi yetmabdi.

— To'xta, behuda urinma, — debdi maymun maq- tanchoqlik bilan. — Bu ish faqat mening qo'limdan keladi. Mana, qarab tur, — deya maymun sakrab-sakrab daraxtning tepasiga chiqib ketibdi.

Maymun daraxt tepasiga chiqib, yaxshi pishgan olmalarni terib, pastga tashlayveribdi. Fil ularni ilib olib, bir joyga to'plabdi. Yig'ilgan olmalarni olib, ular yana ilgari yo'l bilan daryodan o'tishibdi. Ukkining oldiga borib, yig'ib kelgan olmalarini qo'yishibdi.

— Xo'sh, kuch yaxshi ekanmi, epchillikmi? — deb so'rabdi ukki.

— Albatta kuch-qudrat yaxshi, — debdi fil.

— Yo'q, epchillik yaxshiroq, — deb o'z gapini ma'qullabdi maymun.

— Kuch yoki epchillikni alohida baholab bo'lmaydi, — debdi ukki. — Sizlar bir-biringizning yordamingizsiz olmani olib kelolmagan bo'lardinglar. Daryodan filning kuch-qudrati tufayli o'tgan bo'lsangiz, olmani may- munning epchilligi tufayli terib olib keldinglar. Demak, kuch bilan epchillik birlashsa yana ham yaxshiroq bo'lar ekan, — debdi ukki.



**AYYOR TULKI VA IT**

Qadim zamonda bir it tovuq, g'oz va o'rdaklar boqiladigan hovlini qo'riqlar ekan. Kunlarning birida ayyor tulki shu hovlining yonidan o'tib ketayotib, tovuq, o'rdak va g'ozlarning qaqaqlagan tovushini eshitib qolibdi va unda shu hovliga tushish niyati paydo bo'libdi. U hovli atrofini

uzoq aylanib, u yerga kiradigan joy topa olmabdi. Sakrab tushmoqchi bo'libdi-yu, ammo uying tomi balandlik qilibdi.

Tulki uzoq o'ylab axiri: «Hovli poylaydigan itni qo'lga olish kerak», degan fikrga kelibdi. U bir qop topib, unga o'tni bosib solib, orqasiga ortibdi, bir savatga esa toshbaqaning tuxumini solib, uni qo'lga olib, haligi hovlining eshigini taqillatibdi. It eshikni ochib qarasa, orqasiga qop ortgan, qo'lida savat ko'targan tulki dumini likillatib turgan emish.

— Xo'sh, senga nima kerak? — deb so'rabdi it xo'mrayib.

Ayyor tulki tishini g'ijillatib:

— Hovlining yonidan o'tib ketayotgan edim, sen bilan ham tanishib, hol-ahvol so'rab ketay, deb o'yladim.

— Qayerdan kelayapsan? — deb so'rabdi it.

— Shahardan, tovuqlarga don olib kelishga borgan edim, don o'rniga tuxum topib, ularni olib kelyapman. Tuxumning o'zi kichkina bo'lsa-da, nihoyatda asl. Agar bularni tovuqqa bostirsang bormi, shunday jo'ja chiqadiki, har kuni ikkitadan tuxum qo'yadigan bo'ladi.

Itning ko'zi katta-katta ochilib ketibdi. «Bizning tovuqlarga ham shunday tuxum bostirsam... hamma menga rahmat deydi», — deb o'ylabdi it. Keyin tulkidan:

— Menga ham shu tuxumlaringdan bir nechtasini bergin, — deb so'rabdi.

— Mayli, xohlaganingni ol! Men sendek qadrdon do'stimdan hech narsani ayamayman, — debdi tulki.

It tulkini hovliga boshlab kiribdi va kurk tovuqlarga tuxum bostirish niyatida ularni yotqizibdi. Ayyor tulkinining «xolis» xizmatini ko'rgan it unga ishonibdi. Biroz vaqt o'tgach, tulki ortiga qaytmoqchi bo'lib, qopni or- qasiga ortibdi-da, shu zahotiyoy «oh-voh»lashni boishlabdi va itga qarab:

— Voy, do'stim, mazam qochganga o'xshaydi, hamma yerim zirqirab og'riyapti. Bu ahvolda uyimga yetolmasam kerak. Shu yerda tunni o'tkazib, tong otganda jo'nasammikin?

— Mayli, do'stim, qola qol, qachon sog'aysang, shunda ketarsan, — deb it o'z joyiga borib yotibdi.

Hamma yoq tinchigach, ayyor tulki emaklab borib uch tovuqni tutibdi-da, qopiga solibdi. Tovuqlar qo'rqib ketganidan «qag'» deb ham ovoz chiqarolmay qopning ichida jim yotibdilar. Ayyor tulki: «Ajoyib tulkiman-da, itni ham rosa boplab aldadim, tong otgach, shunday hiyla qilayki, itning o'zi qopimni ko'tarib darvozadan olib chiqib bersin. Bari bir kurk tovuqlar tuxumdan jo'ja ochib chiqargunlaricha katakdagi tovuqlar allaqachon qomimga tushib bo'ladi»,— deb o'zicha xursand bo'libdi. So'ng xotirjam uyquga ketibdi.

Kurk tovuq kechasi bilan tuxumni bosib, tong otay deganda tagida nimadir qimirlayotganini sezibdi.

— Jo'ja chiqqanga o'xshaydi, — deb qaragan ekan, tagidan bir narsalar o'rmalab chiqayotganini ko'ribdi. Kurk tovuqning jon-poni chiqib ketibdi. Qo'rqqanidan «qaqalab» hovlini boshiga ko'taribdi. Bu tovushni eshitib barcha tovuq, g'oz va o'rdaklar yugurib katakning oldiga yig'ilishibdi. It ham yugurib kelibdi. Qarasa, to'rt oyoqli, boshi ilonnikiga o'xshash bir narsalar o'rmalab chiqib kelayotgan ekan.

— Bu nima balo?! — deb hayron bo'lishibdi g'ozlar.

— Hey, bechora, tuxumni bekor bosgan ekansan, — debdi o'rdaklar. Tovuqlar esa qo'rqqanidan:

— Qa...qa..qa... Bularni bizning ola tovuq chiqardi, — deyishibdi. Kurk tovuq esa qanotlarini qoqib, ko'zlariga yosh olibdi.

It esa awaliga hech narsani tushunmabdi, keyin sezib, jahl bilan tishlarini g'ichirlatibdi.

— Tulkining olib kelganlari toshbaqaning tuxumi ekan-da, haromzoda meni aldadibdi. Endi men senga aldash qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yaman!

Buni sezgan tulki o'rnidan turib, nima qilishini bilmay gangib qolibdi.

— Eh, sho'rim qursin, kurk tovuq toshbaqaning tuxumlarini ochib yuboribdi, ochilishi yaqin bo'lib qolgan tuxumlarni olgan ekanman. Endi nima qilaman? — deb o'zini qo'yarga joy topolmabdi. So'ng chaqqonlik bilan qopni orqasiga ortib, hovliga yugurib chiqqan ekan, darvozada osilgan katta qulfga ko'zi tushib qolibdi. Nima qilishni bilmay, qo'lidagi qopni tomdan uloqtirib otgan ekan, qop ichidagi tovuqlar chiqib ketib:

— O'g'rini tutinglar, o'g'rini tutinglar! - deb baqi- rishibdi.

Tulki endi tomga chiqib olgan ekan, it, tovuq, g'oz va o'rdaklar yugurib borib, tulkining quyruq'idan tutib tushiribdilar. Hammalari bir bo'lib ayyor tulkini cho'qilab, uning ta'zirini beribdilar.

## IKKI BOY

Qadim zamonda Polvonboy va Posonboy degan boy o'tgan ekan. Polvonboy davlatining yuqori qismida joylashgan yer-suv va chorva mollariga ega bo'lsa, Posonboy esa shu davlatning quyidagi yer-suv va chorva mollariga egalik qilarkan.

Ular sirtidan qaraganda bir-biriga do'st bo'lib ko'rinishsa-da, aslida esa bir-birlarini ko'rolmas ekanlar. Ular hamisha boylik orttirish, mansab va obro'ga ega bo'lish maqsadida, bir-birlarining orqasidan g'iybat va noo'rin gaplar tarqatib yurar ekanlar. Imkoniyat topgan zahoti bir-birlarining obro'larini tushirishga, juda bo'lmaganda bir-birlarini kamsitishga harakat qilisharkan.

Kunlarning birida ular ikkisi katta bir ma'rakaga borishibdi. Ma'rakada Polvonboy quloqlari qamishdek, o'zi semiz to'riq qashqa otini minib boribdi.

Buni ko'rgan Posonboy Polvonboyga hasad qilib, nima qilishini bilmay, uzoq o'ylab qolibdi. So'ng o'zining yaqin tanishiga murojaat qilib:

— Sen hech kimga bildirmay, Polvonboyning anavi to'riq otiga otimning egarini qo'y, ammo buni hech kim ko'rmasin, — debdi.

— Boyning tanishi:

— Xo'p, boy aka, — debdi-da, birovning ko'ziga ko'rinmay, to'riq qashqaning egarini Posonboy otining egari bilan almashtirib qo'yibdi. Xavotirlanib turgan

Posonboyga ishni to'g'rilaganligini ishora bilan tushuntiribdi.

Posonboy xotijam bo'lib, «Endi seni boplayman» deb o'ylab, Polvonboyning yoniga boribdi va:

— Polvonboy bugun boshqa ot minib kelibdilarmi? Anchadan beri minib yurgan otingiz qani? - deb so'rabdi Posonboy.

Polvonboy:

—Awalgi otimning ajali yetib o'ldi, — debdi.

— Bu otni qayerdan oldingiz?! - deb so'rabdi yana Posonboy. Uning savollaridan hayron bo'lgan Polvonboy:

— Juda ajoyib savol berdingiz. Otni qayerdan olardim, yaylovdagi otlarim orasidan-da! - debdi g'azab bilan.

Posonboy yana pisand qilmay:

— Jahlingiz chiqmasin, Polvonboy, mening ham yaylovda o'zim minaman deb niyat qilib yurgan xuddi shunaqa to'riq qashqa otim bor edi, uch oy bo'ldi yo'qolib qoldi, otingizni o'sha yo'qolgan otimga o'xshatib yubordim, agar u sizning otlaringizga qo'shilib qolgan bo'lsa, siz shu otni minib keldingizmi, deb o'ylabman.

Posonboy nimaga ishora qilayotganini anglagan Polvonboyning jahli chiqib:

— Ko'zingga parda tortilganmi? Sen kimni o'g'ri qilmoqchisan? Og'zingga qarab gapir, — deb so'kib beribdi.

Posonboy ham bo'sh kelmay:

— Nega baqirasan? Otning ustiga bir qaragin-da, keyin gapir!— debdi.

Bu tortishuvni eshitib turgan olomon otning oldiga boribdi. Qarashsa, Polvonboy minib kelgan otning ustidagi egar Posonboyniki.

Polvonboyga otdan ko'ra el-yurt oldida izza bo'lgani alam qilibdi, ammo Posonboyning tuhmatini tan olmabdi. Ikkisi janjallashib, san-manga borishibdi. Oxiri ular qozining oldiga borishga ahd qilishibdi. Qozi ikki boyning ham gaplarini tinglab bo'lgach, ulardan ko'proq narsa undirish payiga tushibdi. Bir kun Polvonboyga yon bossa, ertasi kuni Posonboyga yon bosibdi. Shu yo'sinda bir necha kun o'tibdi. Lekin qozi da'vogarni aniqlamabdi. Polvonboy da'vo cho'zilib ketayotganligini anglab, bir kuni oqshomda qozining oldiga boribdi: «Taqsir, to'riq qashqa — mening otim, Posonboy o'z egarini olib, otimning ustiga tashlab, endi menga tuhmat qilyapti. Siz da'voni adolat bilan hal qilasiz degan umiddaman. Ha, bilishimcha, egnimda qalinroq choponim yo'q deb yurardingiz, taqsir, mana bu choponni sizga atagan edim», — deb pora berib qaytibdi.



Ertasi kuni qozi Polvonboyga yon bosibdi.

Posonboy qozining bu qaroridan Polvonvoyning qoziga pora berganligini payqab, u ham kechqurun qozining uyiga borib, unga buzoqni pora tariqasida beribdi.

Ertasi kuni esa qozi Posonboyga yon bosibdi. Polvonboyga qozining bu ishi yoqmay:

— Taqsirim, issiq choponda da'voni odil hal qilasiz, degan umidda edim, — debdi.

Qozi ham parvo qilmay: tezak qilib qo'yibdi-da, - deb, otni Posonboyga ajrim qilib beribdi.

### **OLTI HAYVONNING SAYOHATI**

Bir kuni olti hayvon ittifoqo bir yerga jam bo'lib, uzoq suhbatdan so'ng, bir oylik yo'ldagi bir tog'ga borib sayohat qilib qaytish qaroriga kelib yo'l tadorigini ko'ra boshlashibdi. Yo'l tadorigini ko'rib bo'lishgach, olti hayvon safarga o'tlanishibdi. Bir hafta yo'l yurishgach, bir daraxtzorga yetib kelishibdi. Shu yerda bir-ikki kun dam olishgach, yana safarni davom ettirishibdi...

Ikki hafta yo'l bosishgach, ularning oldidan bir anhor chiqib qolibdi. Anhordan o'tishga ko'prik yo'q, suv kechib, suzib o'tish kerak ekan. Hayvonlardan biri bunday debdi: «Mana, safarga chiqqanimizga ham ikki- uch hafta bo'lib qoldi, lekin oramizda bir boshliq yo'q. Agar oramizdan bir boshliq saylasak va uning gapiga kirib tartib bilan harakat qilsak yaxshi bo'lardi. Mana bu oldimizdagi anhordan eson-omon o'tib olsak, bo'ri, tulki, qushlarga to'lib yotgan xatarli bir to'qaydan chiqib qolamiz. Ana shunday joylarda yo'l biladigan, ishni uddalay oladigan bir yo'l boshchimiz bo'lishi lozim. Biz uning gapidan chiqmay harakat qilsak, ishimiz o'ngidan keladi». Bu fikr ularning barchasiga ma'qul kelibdi. Boshliq saylashga kelganda ulardan biri o'rnidan turib: «Mana shu oldimizdagi anhordan kimning oyog'i suvga tegmay narigi qirg'oqqa o'tib olsa, biz o'shani boshliq qilib saylasak», — debdi. Bu ularning hammasiga ma'qul kelibdi. Anhor bo'yiga kelib qolgan bu hayvonlar sigir, eshak, qo'chqor, taka, tovuq va kirpidan iborat ekan.

Ular bir-birini kechuvga taklif etishib, oramizda hammamizdan yirigimiz sigir, awal sigir o'tsin, degan fikrga kelishibdi. Sigir o'z gavdasidan faxrlanib anhordan o'tishni u qadar mensimabdi. Bir necha qadam ortga tisarilib, odatdagi yo'g'on ovozi bilan mo'raganicha yugurib kelib sakrabdi. Jlekin u anhorning zo'rg'a uchdan ikki qismini bosib o'tibdi. Shunda ham o'z ko'nglida, bularning orasida menchalik sakraydigani yo'q, o'zim boshliq bo'lsam kerak, deb o'ylabdi. Tartib bo'yicha sakrash navbati eshakka kelibdi. U hangraganicha anhordan sakragan ekan, sigirdan bir qadamcha ortga tushibdi. Buni ko'rgan sigir xursand bo'lib, miyig'ida kulib qo'yibdi. Navbat qo'chqorga kelibdi. U bor kuchini yig'ib, narigi qirg'oqni mo'ljalga olib bir sakragan ekan, sigirdan o'tib ketibdi; uning faqat ikki orqa oyog'i suvga tushibdi, xolos. Sigirning umidi yo'qqa chiqibdi. Endi navbat takaga kelibdi. U o'z ko'nglida aslo mag'- rurlanmabdi. «Men oldingi sheriklarimga o'xshab sakramayman, — deb o'ylabdi u. Ular mendan bir necha hissa baquvvat. Shundoq bo'lsa ham kuchimning boricha sakrab ko'raman». U yigirma qadamcha ortga tisarilib, ma'rab kelib kuchining boricha sakragan ekan, anhorning ustidan o'qdek uchib o'tib, qirg'oqdan uch qadamcha nariga borib tushibdi. Takaning sakrashiga boshqalar qoyil qolishibdi. Boshliq taka bo'lishiga hammasining ko'zi yetibdi. O'tganlar chapak chalishib, takani olqishlaganicha nimalardir deb o'zaro pichirlashib ham olishibdi. Navbat tovuqqa kelibdi. Tovuuq o'z ko'nglida, qanotim bo'lganligi uchun anhordan uchib o'tib ketaman deb o'ylab, yigirma qadamcha uzoqlikdan ikki qanotini bir-biriga urib qaqaqlaganicha yugurib kelibdi-da, anhor uzra parvoz qilibdi. Biroq u narigi qirg'oqning labiga borib tushibdi. Nihoyatda mashaqqat bilan suvdan chiqib olibdi. Endi tomoshani kirpidan ko'ring. Kirpi nima qilsam ekan deb, xisir-xisir qilganicha rosa jahd bilan sakrasa-da, anhorning shundoq berigi qirg'og'iga tushibdi. Goh sho'ng'ib, goh ko'tarilib, ming mashaqqat bilan narigi qirg'oqqa chiqib olibdi. Boshqa hayvonlar kirpining bu ahvolini ko'rib rosa kulishibdi.

Ularning hammasi bir joyga yig'ilib, maslahat qilishibdi. Maslahat natijasiga ko'ra hammadan yiroq sakragan takani o'zlariga boshliq qilib

saylashibdi. Qolgan hayvonlar bu boshliqni zo'r xursandchilik bilan qarshi olib, muborakbod etishibdi.

Hayvonlar shundan so'ng boshliqqa ergashib o'z safarlarini davom ettirishibdi. Bir kuni havo tutilib, momaqaldiroqlar guldirab, osmon go'yo o'pirilib tushadigandek titrab, yalt-yult chaqmoqlar chaqibdi, tevarak-atrof xatarga to'lib, yomg'ir yog'adigan bo'lib qolibdi.

Ularning yangi saylangan boshlig'i: «Bugun kechasi sovuq bo'ladiganga o'xshaydi, bu yerning bo'ri, tulkilari juda vahshiy, bu to'qayda yotib qolish, menimcha, xatarli. Bir osoyishta, tinch joy topib yotishimiz kerak», — debdi. Ular tinch joy izlab yurib, qadimdan qolgan bir eski uyga duch kelishibdi. Juda xursand bo'lib ichkari kirishibdi. Bu eski bir tegirmon ekan. U yoq bu yoqqa qarashgan ekan, un xammasiga tushib olib tegirmon toshini yalab turgan bir bo'rini ko'rib qolishibdi. Bo'ri ham bularni ko'ribdi. Bo'ri o'z ko'nglida, bularni maza qilib yeydigan bo'ldim, deb, og'zidan so'laklari oqa boshlabdi. Bu sho'rliklar endi bo'ridan qandoq qutulsin? Qutulishning iloji yo'q! Hayvonlar yaxshi makon izlab naq ajdahoning og'ziga kelib qolibmiz, deya dir-dir titrab turishganda, bo'ri xursand bo'lganicha bularni yanada qo'rqitish uchun bir tirqishda turgan doirani olib chala boshlabdi: «Bum-bak, bum-bak, manavi jonivorni saharlikda yesam, bum-baka-bum-bak, mana bunisini nonushtaga yesam, bum-bak, manavi hayvonni choshgohda yesam, baka-bum-bak, bunisini esa tushlikda yesam, qolganlarini kechqurun yesam», — deya o'rnidan turib ularga hujum qilgani shaylanibdi. Jonivorlar juda qo'rqib ketishibdi.

Taka, o'lsak ham buning bir chorasini topish kerak, deya bo'rining qo'lidan doirani tortib olib: «Bum-bak, bum-bak, manavi bo'rivoyning go'shtini paqqos tu- shirsak, terisi ham asqatadi; bum-bak, bum-bak, bo'yin terisi choponga yoqa bo'ladi, baka-bum-bak, sonining terisi choponimning o'ng etagi bo'ladi, bum-bak, baka- bum-bak, qovurg'asining terisi choponimning so'l etagi bo'ladi, bum-bak, baka-bum-bak, oyoqlarining terisi oyog'imga choriq bo'ladi, bum-bak, bum-bak», - deb chala boshlabdi. Hayvonlar dadillanib, bo'riga xezlanib qaray boshlashibdi. Bo'ri bundan juda qattiq qo'rqib ketib, endi qandoq qutulsam ekan, deya turgan joyida toshdek qotib qolibdi. Bularning go'shtini

yeyman desam, bular mening go'shtimni yeydiganga o'xshaydi, hatto terimni ham zoye ketkazmay ishlatib yuboradiganga o'xshaydi, deya dir-dir qaqshab turganida, baxtiga shamol turib eshikni qiya ochibdi. Bo'ri vaqtni g'animat bilib o'zini tashqariga uribdi.

Hayvonlar xursand bo'lishib, eshikni tambalab uyquga ketishibdi. Ertasi kun quyosh charaqlab chiqibdi. Turli-tuman hasharotlar, o't-o'lanlar, parranda-yu darrandalar quyosh shu'lalaridan bahra olishibdi. Miriqib dam olgan bu olti jonivor yana yo'lga ravona bo'lishibdi. Bir necha kun yo'l yurishgach, ko'zlagan manzillariga yaqin qolibdi. Ular xursand bo'lishib, qo'shiq aytish niyatiga tushib qolishibdi. Bir-biriga, sen ayt-men ayt deb, oxiri, yaxshisi, eshak qo'shiq aytsin, uning ovozi ham yo'g'on, ham chiroyli, deyishibdi. Eshak rozi bo'lib, bir tepalikka chiqib: «Hang-hang-hang», - deyishi bilan, shu tepalik ortida ovlari yurishmay, ochlikdan sillasi qurigan bo'rilar to'dasi bor ekan, ulardan biri eshakning ovozini eshitishi bilanoq tepalikka yugurib chiqib, eshakka hujum qilibdi. Buni ko'rgan eshakning sheriklari qochib qolmoqchi bo'lgan ekan, taka: «Qochishdan foyda yo'q. O'lsak barchamiz o'lamiz, omon qolsak, hammamiz omon qolamiz. Yaxshisi, eshakni qutqazish kerak. Men bo'riga awal hujum qilaman. Sizlar menga qarashib yuboringlar. Baxtimiz chopsa omon qolamiz, yo'qsa shu yo'lda jon beramiz», — debdi. Shu asnoda o'tkir shoxlarini o'qtalgancha bo'riga hujum qilibdi. Bo'ri uni tishlamoqchi bo'lgan ekan, u shoxi bilan chunon suzgan ekan, bo'riining ko'z oldi qorong'ilashib ketibdi. Shu payt tovuq yetib kelib: «Qoq-qoq-qoq, manavi ajali yetib bizga duch kelgan badniyat shumni o'ldirib, ichagini tikanma- tikan, toshma-tosh sudrab yurib, bir yil yeyman-da, o'chimni olaman», — deb bo'riining ko'zini cho'qib olibdi. Bo'ri, endi qochib qolmasam o'ladigan bo'ldim, deb turganida, kirpi yetib kelib: «Nega qarab turibmiz, bu vahshiylarni yer yuzidan yo'q qilishimiz kerak. Men bu bo'rini o'ldirib, go'shtini ninalarimga sanchib qoq qilaman. Qani, dadil bo'laylito, — deyishi hamon bo'ri bir amallab ularning orasidan chiqib qochib qolibdi. Shu qochganicha to'qaydagi bo'rilar tomonga yuguribdi. Buni ko'rib boshqa bo'rilar ham ura qochishibdi. Hihoyat, holdan toygan bo'rilar bir joyga yig'ilishib, haligi bo'ridan hol-ahvol so'rashibdi:

—Nega buncha qo'rqib qochding? Sababi nima?

Bu bo'ri qochishining sababini birma-bir aytib beribdi:

- Men qorin g'amida yo'l poylab yotgan edim, — debdi u. Shu payt bir narsa baqirib qoldi. Qarasam, to'rt oyoqli bir jonivor ekan. Uni yemoqchi bo'lib og'iz solgan edim, yana bir jonivor kelib: «Shoxim bilan qornini yorsam ham ozlik qiladi», — deya hujum qilib qoldi. Shoxi nihoyatda o'tkir ekan. Undan juda qo'rqib turgan edim, yana bir jonivor kelib qoldi. Shoxlari juda yo'g'on. Agar u bir shoxlasa, tit-pit bo'lib ketaman. So'ng yana bittasi keldi. «Ichagini menga berasizlar», — deydi. Oxirida tag'in bir kichkina jonivor keldi. «Go'shtini qoq qilaman», — deydi. Ularga duch kelganimga ming pushaymon bo'lib, zo'rg'a qochib qutuldim.

Bu gaplarni eshitgan bo'rilar, haligi jonivorlar yetib kelib, bizga ham hujum qilmasin, deya uch kunlik yerga qochib ketishibdi. So'ng hammasi yig'ilishib, bizning tinchimizni buzib, mashaqqatlarga duchor etgan, suvsiz cho'llarga qochib ketishimizga sabab bo'lgan, tinchgina ketib borayotgan jonivorlarga hujum qilib, bizning hayotimizni ham xatarga qo'ygan bo'riga oramizda joy yo'q degan qarorga kelishibdi. Hammasi hujumga o'tib, haligi shum bo'rini o'ldirishibdi. Xavf-xatardan xalos bo'lgan haligi olti hayvon esa ko'zlagan manzillariga yetib borib, miriqib sayohat qilishgach, o'z yurtlariga eson- omon qaytib kelishibdi.